

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi*

*Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti*

*“Arxitektura” fakulteti*

*“Arxitektura tarixi va nazariyasi” kafedrasida*

***Yangi yo'l tumanidagi “Qovunchi tepa” arxeologik  
yodgorlikni ilmiy tadqiqoti va grafik tiklash  
loyihasi***

***“Qovunchitepa” kompleksini umumiy ko`rinishi. Islom  
davri, X – XIII asr boshi “Bonunket” shahrining qayta  
tiklash loyihasi***

*Mavzusidagi diplom ishining sharhnomasi*

*Talaba: Saidazizov Bahrom Hikmatilla o'g'li*

*Raxbar: Nozilov Dodo Avazovich*

*Toshkent 2015 y.*

## **Mundarija**

**So`z boshi** .....

### **I. Tarixiy – arxitekturaviy bo`lim**

1. “Qovunchi tepa” kompleksining tarixiy topografiyasi

1.1 “Qovunchi tepa” kompleksini vujudga kelishi .....

1.2 “Burganli madaniyati” va “Qovunchi madaniyati” ning rivojlanishi hamda ijtimoiy siyosiy holat.....

1.3 “Qovunchi tepa” kompleksini shaharsozlik bosqichlari. Tarixiy hududning hozirgi holati.....

1. “Bonunket” shahar hududi qismlarining taxlili

2.1 Masjid.....

2.2 Xommom.....

2.3 Savdo inshootlari.....

Bo`lim bo`yicha hulosalar.....

### **II. Arxitekturaviy bo`lim**

1. “Qovunchi tepa” ning qiyofasini o`xshatmalar (аналоглар) asosida aniqlash

1.1 Shoxruhiya.....

1.2 Kanka.....

1.3 Shosh tepa.....

2. “Qovunchi tepa” rabod va shaxriston qismining grafik rekonstruksiyasi.....

Bo`lim bo`yicha hulosalar.....

### **III. Konstruktiv bo`lim**

1. Qurilish ashyolari .....

2. Mudofa devorlari konstruksiyasi .....

3. Devorlarning arxitekturaviy kompozitsion yechimlari .....

Bo`lim bo`yicha hulosalar .....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

## ***So`z boshi***

*Me`morchilik va shaharsozlikka oid maqalalarda ayrim inshootlar va maskanlar haqida ma`lumotlar keltirilgan. Qovunchi tepaning shaharsozlik nuqtai nazaridan rivojlanish tarixiga oid ma`lumotlar yetarli emas. Borlari ham ma`lum bir matinda jamlangan. Shu hususda Qovunchi tepaning grafik rekonstruksiyasi mavzusidagi bitiruv ishi ushbu yo`nalishdagi tadqiqotlardan biri.*

*Qovunchi tepaning kelib chiqish tarixi, uning dastlabki binolari haqida qadimiy ma`lumotlar juda kam. Manbalarda Arxeolog G. V. Grigorev olib borgan qazish ishlari natijasida topilgan topilmalar haqida ma`lumotlar yoritilgan. "Burganli madaniyati" va "Qovunchi madaniyati"ga oid me`morlik – qurilish qoldiqlari to`g`risida qisqacha to`xtalib o`tilgan.*

*Qovunchi tepaning dastlabki tarixi ma`lum emas. Uning kelib chiqishi haqidagi ma`lumotlar turlicha talqinda beriladi. Me`moriy binolarning tasnifida ham noaniqliklar mavjud.*

*Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bitiruv ishi uchun tadqiqot ob`ekti qilib Yangi yo`l tumanidagi Qovunchi tepa arxeologik yodgorligi tanlandi.*

*Ishning maqsadi Qovunchi tepaning grafik tiklash loyihasini tuzishdan iborat.*

- *Qovunchi tepaning shaharsozlik bosqichlari va hozirgi holatini taxlil qilish:*

- *"Burganli madaniyati" va "Qovunchi madaniyati" rivojlanishini taxlil qilish:*

- *Arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida Qovunchi tepaning tarixiy topografiyasini belgilash:*

- *Qovunchi tepaning shaharsozlik holatida muhim o`rin tutgan binova inshootlar taxlili:*

- *Qovunchi tepaning grafik holatini tasvirlash. Shaharning keying rivoji, tarixiy hududni asrashga oid takliflar berish.*

*Yuqoridagi vazifalarni muvofaqqiyatli bajarish uchun Qovunchi tepaning shaharsozlikdagi o`rnini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bitiruv ishining natijasi Qovunchi tepaning grafik rekonstruksiyasini tiklashdan iborat.*

*Bitiruv ishi ilmiy – tahlil va amaliy loyihaviy usullar asosida bajarilgan.*

*• Mavzu bo`yicha mualliflarning mavjud asarlaridagi ma`lumotlarni tahlil qilish:*

*• Arxiv hujjatlar yozma va chizma ma`limotlarni taxlil qilish:*

*• Loyihalarni o`rganish va ularni taqqoslash:*

*• O`xshamalardan (аналоглардан) foydalanish.*

*Ishning natijasi loyiha tashkilotlari, yodgorliklarni asrash bo`yicha faoliyat ko`rsatuvchi mutaxassislar uchun yordamchi material bo`lib hizmat qilishi kutiladi.*

*Bitiruv ishini bajarishda arxivlar, qo`lyozma manbalardagi, bibliografik materiallardagi me`moriy yodgorliklarni asrash va ta`mirlash sohasida faoliyat ko`rsatuvchi tashkilotlar, Qovunchi tepava uning yodgorliklari ustida olib borgan tadqiqot va loyiha ishlaridagi ma`lumotlardan foydalanildi.*

*Bitiruv ishi sharxnomasining arxitekturaviy qismi to`rt bobdan iborat.*

*1 – bob Qovunchi tepaning vujudga kelishi, “Burganli madaniyati” va “Qovunchi madaniyati” ning rivojlanish, ijtimoiy – siyosiy omillar, shaharning rivojlanish bosqichlari va tarixiy hududning hozirgi holati haqida so`z yuritiladi.*

*2 – bob Qovunchi tepa hududidagi dastlabki diniy imoratalar haqida so`z boradi.*

*3 – bob “Bonunket” shahar qismlarining me`moriy obidalari va ularning tasnifiga bag`ishlanadi.*

*4 – bob Qovunchi tepani o`xshamalar asosida X – XII asr me`moriy qiyofasi aniqlanadi, bevosita grafik rekonstruksiyasi yoritiladi.*

# ***I. Tarixiy - arxitekturaviy bo`lim***

*Rahbar:*

*Turdiyev A. A*

*Bitiruvchi:*

*Saidazizov B.H*

# **1. “Qovunchi tepa” kompleksining tarixiy topografiyasi.**

## **1.1 “Qovunchi tepa” kompleksini vujudga kelishi.**

*Milodiy III – IV asrlar O`rta Osiyoda quldorlik tuzumining tanazzulga yuz tutishi bilan harakterlanadi. Natijada ma`lum bir vaqtga kelib avvalgi hukmi asosida markazlashgan shahar hokimiyati o`z ta`sirini yo`qotib nufuzli dehqonlar atrofiga umumiy mehnat asosida birlashgan kadivarlar uyushmalari yuzaga keladi. Bu esa o`z navbatida feodal munosabatlarning yuzaga kelishiga asos bo`ladi.*

*Shuning natijasida bu davrdagi shaharlar qurilishida avvalgi davrlardagiga nisbatan o`zgarishlar sodir bo`ladi. Natijada O`rta Osiyo me`morchiligida yangi sotsial hayot yuzaga chiqargan bino – feodal ko`shklar barpo bo`ladi.*

*Feodal ko`shklarning qadimgi harobalari butun O`rta Osiyo hududida tuproq – tepaliklar sifatida uchraydi. Ular atrofi handaq bilan o`rab olingan, ko`pinchiligi tog`ri to`rtburchak shaklidagi ko`rinishga ega. Ularni sinchiklab o`rganilganida arxeologik jihatdan o`sha davrdagi hayot tarziga mos ravishda qurilganligini aniqlash mumkin. Chunki bu kabi feodal ko`shklari biron nufuzli feodal oilasining yashashi hamda mudofaalanishiga moslashganligi ma`lum bo`ladi. Shuning uchun bu qasrlar mustahkamroq mudofaa inshootini tashkil etib, alohida suv bilan ta`minlash majmuasiga va zaxira oziq – ovqat jamlash imkoniyatiga ega bo`lgan.*

*X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning yozishicha shu davrda Buxoro vohasi ham intensiv o`zlashtiriladi. Turkistondan ko`chib kelgan kishilar dastlabki davrda dehqonchilik uchun noqulay hisoblangan yerlarni o`zlashtiradi. Dastlab ko`chib kelganlar chodirlar va o`tovlarda yashashadi. Bu joylarda suvning ko`pligi, ov sharoitining yaxshiligi va daraxtzorlar borligi ularning shu yerda o`troqlashib mustahkam binolar barpo etib, o`troq holda hayot kechirish tarziga o`tishlariga sharoit yaratgan.*

*Shunday qilib ilk o`rta (V - VIII)asrlar O`rta Osiyoda feodalizmning shakllanishi davri sifatida karakterlanadi va shu sababli tarixiy va ilmiy adabiyotlarda ilk feodalizm davri deb nomlanadi.*

*Arab sayyohlari, tarixnafislari va geografiyashunoslarining ma`lumotiga qaraganda ilk o`rta asr davrlariga O`rta Osiyo shaharlarining aksariyati uch qismdan iborat bo`lgan. Bu uch qismning biri shahar arki (ko`handiz) – hukmdor qarorgahi bo`lsa, ikkinchisi shahriston (madina dohil) bo`lib, shaharning asosiy qismi savdo hunarmandchilik rastalari, boshqa jamoat hamda turarjoy binolarini o`z ichiga olgan. Uchunchi qism rabod deb atalgan va u shahardan tashqaridagi savdo – hunarmandchilik zonasini tashkil etgan. Lekin VII – VIII asr shaharlarini o`rganish natijalari ularning ko`pchiligi faqatgina ikki qismdan - ark (yoki qal`a) va shahristondan tashkil topganligini ko`rsatadi.*

*Ilk o`rta asrlarga mansub Qanqa, Sharqiya, Dalvarzintepa, Kindiktepa va Qovunchi tepa kabi yodgorliklar Qovunchi madaniyatining birinchi bosqichlariga tegishli bo`lib,ular Sirdaryoning g`arbiy qismi tekisliklarida paydo bo`lgan. Ikkinchi bosqichda shaharlar cho`l va tog`oldi erlarida vujudga kelgan.*


*Qovunchi tepabizga qadimiy yozma manbalar, ilmiy ishlar va arxeologik qazilmalaridan ma`lum.*

*Toshkent viloyatining Yangi yo`l shahridagi Kurkuldak kanalining chap sohilida joylashgan Qovunchi tepao`z davrida juda gavjum bo`lgan. Yodgorlik qaryib 3 ming yildan beri mavjud bo`lib, diz (qal`a) tomonlari 50 x 50 m., shaxriston (ichki shahar) tomonlari 150 x 100 m. va rabot (tapqi shahar)dan iborat edi. Shaharning umumiy maydoni 25 ga bo`lib tarhi erkin aval shaklida. Tomonlarining uzunligi 250 x 85 m., g`arbiy burchagida aylana shakldagi qal`a mavjud. Shaharning janubiy tomonidan karvon yo`li o`tgan va daryo bilan bog`langan, handaq hamda devor bilan o`raglan. Qal`a devorining tuzilishi aniqlanmagan. Shahar muhofazasi murakkab, bir muncha tekislangan tepaliklarda 3 m. qalinlikda tuproq va paxsadb platforma tashkil etilgan. Ustidan bir necha qavat hom g`isht tushalgan (farsh qilingan).Platforma chetidan devorgacha 15 m. oraliq bor, devorining pastki qismi paxsadan, tepasi xom g`ishtdan ishlangan.Devor eni 4.5 m. balandligi 8 – 9 m. Madaniy qatlamlari 4 – 12.5 m. qalinlikda. Milodiy III - VIII asrlada shahar va rabodda hayot ancha rivojlangan. Moddiy madaniyatga Sirdaryoning quyi qismida yashagan qadimgi*

*aholining madaniyati katta ta'sir qilgan. Uning tevaraklarida ko'plab ko'shk, kad va kentlar paydo bo'lgan. Ulardagi imoratlar asosan hom g'isht va paxsadan iborat bo'lib, hozirda haroba tepalik holida saqlanib qolgan.*


*Mamlakatlararo oloqalar rivojlanishi Buyuk Ipak Yo'li bilan ataladigan xalqaro karvon yo'li shakllanishiga olib keldi. Uning muhim tarmoqlari Ovropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlarini o'zaro bog'lagan. Bu yo'l orqali birinchi mingyillikning o'rtalaridan milodiy XV asrgacha Sharq va G'arb o'rtasida intensiv ravishda iqtisodiy - madaniy aloqalar bo'lib turgan.*

*Xulosa qilib aytganda, bu davrda O'rta Osiyoda ilk feodalizm shakllanib, madaniy hayot barq urib kelayotgan edi. Lekin VII - oxiri va VIII - asr boshlaridagi arablar istilosi taraqqiyot sur'atiga o'zining sezilarni ta'sirini o'tkazdi.*




*Qovunchi tepa davrida kichik shaharlarning shakllanish bosqichlari*


*sxemasi. Tiklash loyihasi.*




*Qovunchi tepa  
kompleksining tiklani  
sh qismi*

*Qovunchi tepa  
kompleksining II -  
rivojlanish qismi*





*Qovunchi tepa kompleksidagi Bonunket sharining islom davrida rivojlanish bosqichi*



*Qovunchi tepa kompleksining islom davridagi umumiy rivojlanishi*

## **1.2 “Burganli madaniyati” va “Qovunchi madaniyati” ning rivojlanishi hamda ijtimoiy siyosiy holat.**

Miloddan avvalgi uch ming yil ilgari Toshkent vohasida “Burganli madaniyati” va “Qovunchi madaniyati” qaror topgan. Tadqiqotchilar “Burganli madaniyati”ni ikki bosqichga ajratadilar:

“Burganli madaniyati” 1 – miloddan avvalgi IX – VII asrlar.

“Burganli madaniyati” 2 – miloddan avvalgi VI – III asrlar.

“Burganli madaniyati” so`ngi jez va ilk temir davrlariga oid arxeologik madaniyat bo`lib, Toshkent yaqinidagi Burgashshoy sohilidan topilgan. Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryosining irmoqlari hamda Jo`n va Salar kanallarining shaxobchalari havzalarida tarqalgan.

“Burganli madaniyati”ga oid dastlabgi yodgorliklar 1934 – yil arxeolog A.V.Grigoryev tomonidan Qovunchi tepaning ostki qatlamlaridan topilgan. 1940 – yil A.I.Terenojkin Burganlisoyda olib borgan qazish ishlaridan so`ng “Burganli madaniyati” alohida mustaqil madaniyat ekanligini aniqlagan.

“Burganli madaniyati” Toshkent vohasida yashab, ko`chmanchi chorvochilikdan o`troq dehqonchilikka o`tgan aholi madaniyati hisoblanadi. Bu madaniyatga oid eng yirik manzilgoh Ohangaron daryosi bo`yida bo`lib, u hom g`ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devori va handaq bilan o`raglan. Undagi yarim yerto`lalar kvadrat, to`g`ri to`rtburchak va tuxumsimon shaklda bo`lib, eshigi daryo tomon qaragan. Ular ichida o`choqlar, turli sopol idish bo`laklari va hayvonlar suyagi bilan to`la o`ralar topilgan. Bu davr aholisi ho`jaligida chorvochilik bilan bir qatorda, dehqonchilik ham muhim ro`l o`ynagan, ov va baliqchilik esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo`lgan. Bu davr hunarmandchiligi ancha sodda. Sopol idishlar, asosan qo`lda yasalib, sirtiga qizil rang berilgan va ba`zi geometrik shakllar ham chizilgan. Ayrim idishlar ichki qismida dag`al jun mato izi saqlanib qolganligi ularning mato qoliplarda tayyorlaganligini ko`rsatadi. Paykon, hanjar, pichoq, taqinchoq, ustara, bigiz, qoshiq, bel kabi jang va mehnat qurollari, uyro`zg`or, zeb – ziynat buyumlari ham jezdan yasalgan.

*“Burganli madaniyati” yodgorliklari Farg`ona vodiysidagi Chust madaniyati, Surxondaryodagi Kuchuktepa, Mirshodi, Bandixon, Jarqo`ton, janubiy Turkmanistondagi Yoztepa va shimoliy Afg`onistondagi Tilyatepa yodgorliklariga ko`p jihatdan o`xshashdir.*

*Asqarova A. va Filanovich M. Shosh madaniyat tarixini Shoshtepa materiallari asosida 2 – bosqich “Burganli madaniyati”ning tugallanish bosqichi (milioddan avvalgi VI – IV - asrlar) va “Burganli madaniyati”ning “Qovunchi madaniyati”ga o`tish bosqichi (miloddan avvalgi III – II - asrlar) ga ajratadi.*


*Toshkent vohasi “Qovunchi madaniyati” shakllanishining asosiy markazi bo`lgan. Majmualarda me`morlik maktabining mahalliy an`analariga asoslangan, yuksak mudofaa inshootlariga ega bo`lgan shaharsozlik, sopol idishlar va haykalchalar shaklining o`ziga hos hususiyatlari tarkib topgan.*

*“Qovunchi madaniyati” vohada shahar madaniyati paydo bo`lishi hamda irrigatsiya tizimining takomillashishi asosida dehqonchilikning yanada rivojlanish davrida tarqalgan. Qovunchi majmualari asosida Toshkent shahar madaniyati paydo bo`lgan va rivojlana boshlagan. O`sha davrdagi ark va uning atrofida 1 yoki 2 qishloqdan iborat aholi punktlari bo`lib, ularning ayrimlari mudofaa devorlari bilan o`ralgan. Shaharlar hunarmandchilikning va savdo – sotiqning asosiy tayanch punkti hisoblangan. Metallga ishlov berish (temirchilik, jez asboblari quyish) ancha rivojlangan. Kulolchilikda sopol idishlar yasash asosiy o`rin egallagan, ularning turi shakli ko`paygan. Sopol idishlarning tagi tekis bo`lgan. Qovunchi I da ko`vacha, tovoq, qizg`ish yoki bo`g`iq qo`ng`ir rang berilgan sopol idishlar, Qovunchi II da quloqli hurmachalar, bandlari hayvon shaklidagi turli idishlar va hurmachalar uchraydi. “Qovunchi madaniyati”ga hos idish qopqoqlari, ko`ralar, diniy marosim buyumlari, 2 boshli qo`chqor yoki shoxli hokiz boshlari shaklida yasalgan o`choq poy – tagliklari topilgan, ulardan tutatqi solinadigan va qurbonlik qilinadigan idish sifatida ham foydalanilgan. Qovunchiliklar dehqonchilik va yaylov chorvachiligi bilan shug`ullanishgan. Ular dehqonchilik ma`budalari, olov va ajdodlarga sig`inishgan.*

*Milodning dastlabki asrlarida “Qovunchi madaniyati” janubga tomon tarqalib, Sug`d, Qashqadaryo hududidagi mahalliy madaniy majmualarga ta`sir eta boshlagan. VI – asrga kelib, O`rta Osiyoning markazidagi vohalar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarining kuchayishi hamda umumsug`d madaniyati*

*ta'sirida Toshkent vohasida "Qovunchi madaniyati" o'ziga hos alomatlarini yo`qotgan, sekin - asta butun Movarounnahrda hos yagona madaniyat vujudga kela boshlagan.*

*Arxeolog G.V.Grigoryev Qovunchi tepada olib borgan qazish ishlarida "Burganli madaniyati" va "Qovunchi madaniyati"ga oid me'morlik-qurilish qoldiqlaridan tashkil topgan. Arkning ostki qatlamlarida yerto'lalar, kulxona, qo'lda yasalgan dag'al sopol idishlar Burganli davri (miloddan avvalgi VI -VIII asrlar) ga tegishlidir. Qazish natijasida tubu yumaloq, tumshuqli qozonlar, yarim yumaloq tog'orachalar, yuza kosalar, tubi tekis humchalar topilgan. Ayrim idishlarga qizil, jigarrang angob bilan keng chiziq yoki romb shaklida naqishlar berilgan. Qovunchi davri 2 bosqichga bo'lingan. Mioddan avvalgi III-asr, milodiy II-asrda hom g'isht va paxsadan istexkom hamda turar joy binolari qurilgan. Milodiy III-VIII asrlada shahar va rabodda hayot ancha rivojlangan. Moddiy madaniyatga Sirdaryoning quyi qismida yashagan qadimgi aholining madaniyati katta ta'sir qilgan. VIII - asrning 1 - yarmida arablarning Chochga qilgan bosqinchiligidan so`ng Qovunchi tashlandiq holga kelgan. XV - XVI asrga kelib, unda hayot qayta tiklangan.*



*Yuqori va pastki madaniyatni taqqoslash jadvali*

### **1.3 “Qovunchi tepa” kompleksini shaharsozlik bosqichlari. Tarixiy hududning xozirgi holati.**

*Qovunchi tepa joylashgan Yangi yo'l tumani 1926 – yil 26 – sentayabr kuni tashkil etilgan bo'lib, respublikasning shimoliy – sharqida joylashgan. Hozirgi shahar tarxida qadimiy Qovunchi tepaqal'asining chegaralarini belgilash qiyin bo'lsada topografik tarx, saqlanib qolgan madaniy qalamlar, me'moriy inshootlar tarxi, A.V. Grigoryevning 1934 yil olib borgan qazish ishlarida olingan ma'lumotlarga tayangan holda Qovunchi tepaqadimiy hududini, so'ng o'rta asrlarga kelib shakllangan qismini grafik ravishda qayta tiklashga dalillar topish mumkin.*

*Manbalar, dalillar, hujjatlarga asoslanib, shahar 3 bosqichda rivojlanganligi ma'lum bo'ldi.*

*Yangi yo'l tumanidagi Kurkuldak kanalining chap sohilida joylashgan bu shahar 25 gektarni egallagan bo'lib, eramizdan avvalgi VI – asrda tuproq – tepalik sifatida vujudga kelgan. Hom g'isht va paxsadan istehkom hamda turar joy binolari qurilgan. Arxeologik qazilmalar bu yurtda otashparastlar va budda dinlariga mansub bo'lgan ibodatxonalar qurilganligidan dalolat beradi. O'sha davrlarda qal'alar qurilishi ham keng rivojlangan. Qal'alar balandlik joylarida qurilib, tashqi yovlardan mudofaa vazifasini o'tagan.*


*Qovunchi tepa tarixining keyingi bosqichi milodiy III – VIII asrlarni o'z ichiga olgan bo'lib, shahar va rabodda hayot ancha rivojlangan. Bu davrda shahar ark, shaxriston va raboddan iboratligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Rabad va shaxriston devor bilan o'raglan. Bu davrda shaharlarni suv bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Moddiy madaniyatga Sirdaryoning quyi qismida yashagan qadimiy aholining madaniyati katta ta'sir qilgan. VIII – asrning 1 – yarimida arablarning Chochga qilgan bosqinchiligidan so'ng Qovunchi tepa tashlandik holga kelgan.*

*Qovunchi tepaning bu bosqichi islom davrini yani X – XII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Qovunchi tepa Bonunket shahri nomi bilan ataladi. Arablar istelosidan keyin me'morchilik va shahar qurilishidagi turdagi binolar vujudga keldi. Jumladan masjidlar, maqbaralar, rabodlar, keyinroq madrasa kabi binolar ko'plab qurildi. IX – asr boshlarida avvalgidek asosan hom g'isht, paxsa*

*ishlatilgan bo`lsa keyinchalik pishiq g`isht ma`muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy material bo`lib qoldi. Turar joy binolari qurilishida esa sinchli konstruksiya keng tarqaldi. Pardoz ishlarida somon loysuvoq qatorida ganchning har hil turlari ishlatilgan.*

*Yuqoridagilardan quyidagi asosiy hulosalarni chiqarish mumkin:*

- 1. Qadimiy hududning zamonaviy shahar tizimidagi o`rnini faqat manbalardagi ma`lumotlar tahlilidagina aniqlash mumkin.*
- 2. Hozirda tarixiy hudud Yangi yo`l tumanining janubiy – g`arbiy qismida tuproq - tepalik sifatida saqlangan.*
- 3. Yurtimizda shahar madaniyati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beruvchi arxeologik ma`lumotlar, shuningdek bu erda aholi qadim-qadim davrlardayoq o`troq yashab dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanganligidan ham guvohlik beradi.*
- 4. Arablar istilo qilgan erlarida dastlab masjidlar qurishga, qadimiy ibodatxonalarini masjidlarga aylantirishga e`tibor berganlar. Shu asosda me`morchilik va binokorlikda jonlanish boshlangan. Shaharlar shahriston va rabodlarga ajratilib qurila boshlangan.*
- 5. Agar geografik haritaga e`tibor beradigan bo`lsak, Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalari o`zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli Markaziy Osiyoda muhim etnik jarayonlar hind – evropa, hind – eroniy va turklarning ko`chishi kuzatiladi.*
- 6. Insoniyat sivilizatsiyasini dastlabki o`choqlaridan biri hisoblanadigan Markaziy Osiyo, xususan O`zbekiston o`zining qadimiy shahar madaniyati bilan ham jahonga mashhur.*





*Qovunchi tepa hududidagi yakka tartibdagi turar uylarning joylashuvi.*





*Qovunchi tepa kompleksining umumiy ko`rinishi*



*Zamonaviy Yangi yo'l tumanining topografik chizmasi.*



## **2. “Bonunkent” shahar hududiy qismlarining taxlili**

### **2.1 Masjid**

*Markaziy Osiyoda islom dini o`rnatilgandan so`ng ibodatxonalar o`rniga masjidlar qurila boshlandi. Buxorolik tarixchi Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda Mox bozori yonidagi otashparastlar exromi o`rniga qurilgan bezakli masjid 325-937 yilda yong`indan kul bo`lgan (Narshaxiy, 1966,27,84-6.)- Taxmin qilinishicha, xozirgi Magoki-Attori masjidi, vayron bo`lgan Mox. masjidi o`rniga qurilgan. Shuningdek, birinchi qurilgan masjidlar qatoriga Termizdagi Chorustun, Buxorodagi Mox, Marvdagi ikkita masjid kiradi. Qadimiy masjidlar tarxda ko`prok to`rtburchak tuzilishda bo`lgan. Ularning usti qalin g`ishtin ustunlarga o`rnatilgan ravoqlar yordamida gumbazlar bilan yopilgan. Ustunlar soni to`rt, olti va undan ortiq bo`lgan. Aksariyat xolda ustunlar oralig`idagi gumbaz qolganlaridan keng va balandrok xolda qurilgan. Shuningdek, bir yoki ikki tomoni ochiq tarxdagi masjidlar bo`lgan. Bunga Termizdagi Chorustun masjidi kiradi. Ular bizning davrimizgacha saqlanmagan. Chorustun masjidining shimol va sharq tomonlari ochiq bo`lgan.*

*Bezak, masjidning ustun, ravoq va mexrob qismida bo`lgan. Ustunlardagi g`ishtlarning turli yo`nalishlarda qilanishi yordamida bezaklar chikarilgan. Mexrob bo`linmasi tarxda bir necha yoysimon yarim doiradan tashkil topgan. Shuning uchun bunday yuzaga ko`proq archasimon, rombsimon naqshlar tug`ri keladi, deb o`ylaymiz.*

*O`rta asrlarda xam shaxarlarda jome (juma) masjidlari qurilganligidan Jaloliddin Rumiyning yuqorida keltirilgan: «Shaxar xalkining to`planishi uchun jomiy bino etilgan», - degan fikri guvoxlik beradi. Shuningdek, Narshaxiyning iydgox masjidi uchun Somoniy Mansur tomonidan buyurtma berilganligi xaqidagi fikri, o`rta asrlarda shaxardan tashqarida diniy bayramlarda namoz o`qilishi uchun iydgox masjidlari qurilganligidan dalolat beradi.*

*Jome masjidlari ko`p kishini sigdirishga mo`ljallangan. Shuning uchun bunday masjidlar devori atrofi, ayvoy bilan aylantirilgan. O`rta asrlarga oid Dandanakon shaxarchasida, arxeologlar tomonidan ochilgan xovli atrofi g`isht ustunli ayvon bilan aylantirilgan masjid xam, jome masjidi vazifasini bajargan bo`lsa kerak.*

*O`rta asrlarda tor qishloqlarida xam xashamatli masjidlar bo`lgandigidan Asht, Iskodar tor qishloqlaridagi mexroblar, Obburdon, Kurut, Rarz, Chorkux qishloqlaridagi uymakorlik kilingan ustunlar, Fatmev, Varzi Minor, Rarz qishloqlaridagi xom gishtdan qurilgan qadimiy minoralar guvoxlik beradi. Olimlarimizning ta`kidlashlaricha, Yuqori Zarafshonning ettita kishlogida qadimiy minora bo`lgan ekan. Tog`larda qadimiy masjidlar saqlanmagan, lekin ayrimlarining tuzilishi, qadimiy masjidlar intereriga xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Bunga Zosun (Yukori Zarafshon) kishlogidagi «Xajdax-dara» nomli masjid misol bo`la oladi. Uning uch devorida uchtadan, garb tomonidagi devorida ikki*

*eshik o`rnatilgan. Bu tadbir O`rta asrlarga oid masjidlarning tarxini eslatadi. O`rta asrlarda masjidlar intereriga extiyotkorlik bilan me`yorida bezak berishgan. Ularning aksariyatida asosiy e`tibor masjidlar mexrobi bezagiga va yogoch uymakorligiga karatilgan. Xususan, mexrob tuzilishi va badiiy bezagiga aloxida e`tibor berilgan. Narshaxiyning yozib koldirishicha, Ismoil Somoniy, (970-971 yil) iydgox masjidi uchun chiroyli mexrob va minbar buyurtma bergan ekan. Xashamatli mexroblar Afrosiyob (IX-X asrlar), Shir Kabir masjidi (IX-X asrlar), Iskodar tor kishlori (X-XI asrlar) va boshqa joylarda topilgan .*

*Afrosiyobdan topilgan mexrob tanasi tarxda tugri to`rtburchak tuzilishda, usti ravok shaklida yopilgan. Mexrob burchaklari chorak kishini chizikli nakshlar egallaydi. Uning ichki devori markaziy kismidan kutarilgan urama nixollari va barglari bilan mexrobning yon devorlariga xam utib kettan.*

*Mexroblar kompozitsiyasi usimliksimon, geometrik nakshlar bilan birgalikda yozuvlar bilan Xam boyitilgan. Daxistondagi IX-X asrlarga oid Shir Kabir masjidi mexrobi uch kavat ravokdan iborat. Ravoklar yuzasiga usimliksimon naksh uyshgan. Ularning yukori kismiga chiroyli xusnixatda Kur'on oyatlari bitilgan. Mexrob xanuzgachakisman saklanib qolgan bezagi bilan masjid xonakosi intereriga badiiylik, tanatanavorlik barishlaydi va kompozitsiya jixatidan yaxlitlikni ta`minlaydi.*

*Masjid intereri bezakdan xoli bo`lgan paytda xam uning tantanavorligini ta`minlash yullari izlangan (82-rasm). Ko`proq konstruktiv element xisobiga interer kompozitsiyasini boyi-tishga erishilgan. Jumladan, Karmanadagi X-XI asrlarga oid Mirsaid Baxrom makbarasida gumbaz gardishiga asos bo`lib xizmat qilgan sakkiz-burchakning burchak yarim ustunlari tug`ridan tug`ri pol satxidan kutarilgan. Bu tadbir xonaning turri to`rtburchak kismiga xam uziga xos tantanavorlik bagishlagan va sakkizburchak bilan to`rtburchak uzaro xam konstruktiv, xam badiiy jixatdan boglangan. Shunday tadbirni Termizdagi XI asrga oid Sulton Saodat makbarasida, Turkmanistondagi Talxatanbobo masjidi intererida xam kuramiz. Bu tadbir bir karashda oddiy kuringani bilan interer kuri-nishiga tubdan uzgarish kiritgan. Birinchidan, xonaning to`rtburchak kismi devorini oddiy bulishdan asragan, ikkinchidan, xonaning to`rtburchak kismida tokcha shaklidagi katta bulinma yaratish imkonini bergan. Shuningdek, bulinmalarning ustini ravok bilan yopish xamda to`rtburchak ustidagi sakkizburchakka konstruktiv zamin yaratish va uning mustaxkamligini ta`minlash imkonini bergan. Bu davrda masjid intererida devor, yarim ustun, ustun, mexrob yuzalari juft - juft kalangan rishtlar oraligida tik joylashtirilgan uyma bezakli risht bulagan bilan boyitilgan.*

*Gumbazli imoratlarda to`rtburchakdan sakkizburchakka utishda yuzaga kelgan burchak bagallarining ustki kismi muqarnas sharafa bilan berkitilgan. Bu tadbir, asosan bushlik paydo bo`lgan barallarini berkitishga karatilgan. To`rtburchak va sakkizburchakning bagallari bir necha kavat ravokcha yoki bir nechta sharafalar «P» xarfiga monand shakl bilan tusilgan.*

*XI-XII asrlarda xam ilk masjidlar tuzilishi takrorlanadi. Masjidlarga xos (Talxatanbo-bo masjidi) uch xonadan, ya'ni O'rtada markaziy xo-na - xonakox va ikki yonida uzunchok xonalardan tashkil topgan tuzilishdagi tarx namozgoxlarda xam keng qo'llanilgan. Daxiston va Niso namozgoxlari fikrimizga dalil buladi. Bu davrda xam masjid mexrobi bezagida yozuvlar kulaniladi. (Dandanakon masjidi mexrobi). Imorat intereri bezagida yuzasiga turli shakllar uyilgan pishgan risht - terrakota keng qo'llanilgan. Ustunlar, yarm ustunlar, sharafa va mexrob-larning bezagida risht turli shakllarga keltiri-libishlangan. Intererningpoygumbaz - sakkizburchak barallarida gumbaz gardishi poydevorida g'ishtlarning tik va ufk chiziri yunalishida terib, uchburchak tuzilishidagi shara-fa kurinishini beradigan shakl va yuzalar qo'llanilgan. Mazkur shakllar sharafa-larning ilk kurinishi bo`lib, ular murakkab kompozitsiyadagi sharafalarning shakllanishi-ga asos bo`lgan, deb uylaymiz. XI-XII asr imoratlari intererida sharafalar uzunchok tuzilishda, bir necha kator kosachadan tashkil topgan uch-burchak tuzilishidagi shaklda kelishi mumkin. Ular to`rtburchak, sakkizburchaklarning baral kism-larini tuldirgan xamda gumbaz gardishi poy-devorida yukori tomon kichrayib borgan shayuha qo'llanilgan. Sharafalar kichik va oddnyrok, bulishiga karamasdan, interer kompozitsiyasiga badiiylik bagishlagan. XIV-XV asrlarda boshqa turdagi imoratlar kabi masjidlar intererida xam murakkab tuzilishdagi sharafalar qo'llanilgan. Aksariyat obidalarda sharafalar rang bilan boyitilgan. Rang kulanilmagan takdirda xam sharafatar intererga tantanavorlik bagishlagan. Jumladan, Samarkandda Kusam ibn Abbos me'moriy majmuasida masjidning rarbiiy tomonidagi bulinma mayolika bilan bezatilgan. Lekin dalon tuzilishidagi ziyoratxonaning qolgan kismiga rang ishlatilmagan. Shunday bulishiga karamasdan, xona gumbaz osti burchaklaridagi sharafalar boy kompozitsiyani tashkil etadi. Ular masjid intereriga mayinlik bagishlagan. Tillakori madrasasi majmuasidagi masjidning rarbiiy devorida sharafalarning pastki kismi bulaklari kattaligida kataklarga taksimlangan katorlar mavjud. Kataklar ingichka xoshiyalar ichiga olingan. Ular yuzasiga xuddi sharafa kosachalari va bulaklaridagidek ravok ichiga olingan usimliksimon nakshlar chizilgan. Mazkur tadbir devor yuzasining ochik kismi bilan sharafalarning kompozitsiya jixatidan bog-lanishini ta'minlagan. Shu bilan birga shara-faning kishi kuziga ogir bo`lib tuyulishidan asragan.*

*XIV-XV asrlarda masjidlar, saroylar kabi salobatli va muxtasham bo`lgan. Jumladan, Samarkandda 1399-1404 yillarda qurilgan Bibixonim nomi bilan tanilgan jome masjidi fikrimiz isboti bula oladi. Obida katta xovliga ega. Uning atrofi kichik gumbazlardan tashkil topgan bostirmaga ega bo`lgan. Sh.E. Ratiya rekonstruktsiyasi buyicha, bostirma 398 ta gumbazdan tashkil topgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, ustunlar soni 480 ta. Sh.E. Ratiya-ning xisobiga kura esa, 422 ta bo`lgan. Xovlining turida katta masjid, ikki yonida kichik darsxona-masjidlar, poygoxida peshtok -darvoza bo`lgan.*

*Obida intererida devor yuzalarining yaruslarga bulinishi xarakterlidir. Devor yuzasi kukzarxal ranglarda naksh bilan koplangan. Gumbaz va ravoklar*

*yuzasi ustidan zarxal yuritiltan burtma koroz bilan koplangan. Mexrob bo`linmasi yukori kismi mukarnas bilan tuldirilgan.*

*Buxorodash XV-XIII asrlarga oid Masjidi Kalon xam tarxda tug`ri to`rtburchak xovliga ega. Uning 288 ta gumbazi bo`lib, ular rishtin ustunlarga tayangan. Masjid galereyasi intereri kichik-kichik gumbazlar va kalin ustunlar bilan uzgacha kompozitsiyaga ega bo`lgan.*

*XVI asrda masjid intereri serjilo bezaklar bilan bezatilgan. Jumladan, Buxorodagi Xuja Zayniddin masjidi devorlari naqshga tuldirilgan. Xonakox uch devorining izora kismi geometrik, to`rtinchi devori jimjimador ravoklar ichiga olingan usimliksimon nakshlar bilan bezatil-gan. Masjid shiftlari xam muxtasham bezakka egadir. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrda masjidlar intererida bezak badiylashtiril-gan. Gumbaz osti bezaklari interererning konstruktiv kismini oddiylashtiradi. Gumbaz poydevori esa serxasham sharafalar katori bilan belgilangan.*

*XIX-XX asr boshlarida shaxar maxallalari masjidlarida xonakox bir, ikki yoki uch tomoni ayvon bilan aylantirilgan tarx keng uchraydi. Ular gumbazli xam bulishi mumkin. Shular kato-riga XVII-XIX asrlarga oid Ok masjid va Guzar masjidlari kiradi. Ko`proq. xonakoxi tekis shiftli bir, turt va undan ortik ustunlarga ega masjidlar ko`p uchraydi. Shuningdek, bir ustunli, tomonlari teng to`rtburchak tuzilishidagi, turt gumbazli yoki ikki ustunli tarxda tugri to`rtburchak olti gumbazli masjidlar xam qurilgan. Bunday tuzil ishdagi masjidlar Kdshkddaryoda Potron, Kaxlyak, Pandron, Xuja Karlik, Bandi Kushod kabi kishlokdarda uchratilgan va o`rganilgan. Bunday masjidlarda interererning monumental kompozitsiyasida bulishiga erishilgan. Ularda gumbazlar kichikrok bulishiga karamasdan, son jixa-tidan ko`pligi bilan, interererning, katta masjid-lardagidek salobatli, tantanavor bulishi ta`minlangan.*

*Masjid, xonakox intererlari bir-biridan nakshu nigori bilan ajralgan. Xonakox va ayvon shifti rang-barang naksh bilan bezatil-gan masjidlar ko`p uchraydi. Shuningdek, masjidlarning mexrob bezagiga xam aloxida e`ti-bor berilgan. Shu urinda bir masalaga aloxida tuxtab utishni lozim topdik. Markaziy Osiyo-da masjidlar tarxi va kompozitsiyasida ochiqlikka katta e`tibor berilgan. Misol tarikasida islom dini urnatilgunga kadar turar joy, zardushtiylik (Panjikent) va buddaviylik ibodatxonalarida keng qo`llanilgan katta xona atrofi «P» xarfi shaklida (koridor) dalon bilan aylantirilgan tarxni olib karasak, shunga uxshash tuzilishni masjidlarda xam kuramiz. Xususan, maxalla masjidlarida. Unda dalon o`rniga ayvon qo`llanilgan. Shunga uxshash tarx Termizdagi Shoxlar saroyida xam mujassam. Saroyda katta xona atrofi buylab yunalgan kalin ustun-lar oraligiga biggadan yana shunday kalinlikdagi ustun urnatilsa bas, katta xona atrofi "P" xarfiga monand dalon bilan aylantirilgan tarxga ega bo`lib koladi. Masjidlar tarxi, kompozitsiyasida uning xamma uchun ochik bulishini ta`minlashga karatilgan goya mavjud. Fikrimizning isboti uchun yana bir dalil keltiramiz. Kichik maxalla masjidlarining uch devorida ikkitadan oltita eshik*

urnatshtsan, kattaroklarida esa uchtadan tukkizta eshik mavjud. Yana ularning xar biri ustiga bittadan tobadon (panjara) o`rnatilgan. Yukori Zarafshonning Zosun tog kishlogi masjidining uch devorida tukkizta eshik, xar kaysisining ustida yana bittadan xuddi shunday kattalikda darcha koldirilgan. Darchalar xam pastdagidek bir xil kattalikdagi ikki tabakali bagdodi eshshshar bilan tusilgan. Shuning uchun xam mazkur masjid "Xajdaxdara" - un sakkiz eshikli, deb nom olgan. Fargona vodiysida maxalla, kish-lok va jome masjidlarida chukur ayvon keng qo`llanilgan. Sux voxasining Rovon, X,ushyor kishloklari masjidleri va Paxtaobod kishlogining Podshox - Pirim majmuasidagi masjid, fikrimiz isboti bula oladi. Fargona vodiysi me'morchiligi tadkikotchisi I. Azimov XIX va XX asrning boshlarida qurilgan 15 ta masjid tarxini keltiradi. Shu masjidlarning 13 tasida chukur va katta ayvon mavjud. Ularda ayvon, masjid xonako-xining bir yoki ikki yon tomonidan kushilgan. Ular deyarli masjid xonakoxi tarxini kaytaradi. Xonakox O`rtasida ikki, turt ustun bulsa, yonidagi ayvon markazida xam ustunlar soni shuncha bul-gan. Bordiyu xonakox old kismi ayvonga ega bulsa, u xolda yon tomonidagi ayvon rarbiy devoriga parallel xolda uch kator ustun o`rnatilgan. Ayvon uch tomonidan devor bilan chegaralangan. Uning rarbiy devorida xamma vakt mexrob nazarda tutilgan. Bunday masjidlarda ayvon intereri masjid kompozitsiyasida uzining monumental-ligi bilan ajraladi. Ayvon intereri serbezak shifti va ustunlari bilan ekstereriga xam tantanavorlik bagishlaydi. Shunday tuzilish-dagi masjidlar Toshkentda xam qurilgan. Ular qatoriga Chakar maxalla, Tuxta boyvachcha masjidleri kiradi.

Bunday masjidlar ayvonning chukurligi, uch tomonidan devor bilan chegaralanganligi va old tomonidan ochikligi bilan Panjikent ibodat-xonalari asosiy zalini va Termizdagi Chorustun masjidi tarxi va kompozitsiyasini eslatadi.

Jome masjidleri uzining salobatligi bilan ajralib turgan. Ular gumbazli va tekis shiftli bulishi mumkin. Xar ikkala turdagi intererda xam shift va gumbaz bezagiga aloxi-da e'tibor berilgan. Buxorodagi Boloxovuz va Margilondagi juma masjidi tasvirlerini namuna sifatida kelti-ramiz. Shuningdek, shifti va devorleri rang bezakleri ishlanmagan jome masjidleri xam uchraydi. Misol tarikasida Xiva shaxridagi Juma masjidiga biroz tuxtalib utamiz. Masjid intereri katta yuzani tashkil kiladi (90-rasm). Unda 212 ustun mavjud. Ulardan 25 tasi XII asrlar-ga oid. Xonakox devorleri oddiy, fakt mexrob bezakka ega. Masjid xonakoxi uziga xos kurinishga ega, uning kaysi tomoniga karamang, kuzingiz uymakorlik kilingan serxasham ustunlar katoriga tushadi. Interer tantanavorligini ustunlar urnatilish tartibi, muxtasham nakshleri va guzal proportsiyalari ta'minlaydi. XIX-XX asrlar boshlarida risht ustunlarga o`rnatilgan ko`p gumbazli juma masjidleri xam qurilgan. Markaziy Osiyoda masjid xonakoxi shifti marka-zida ustunlar oralirida taxtalardan terilgan gumbazli kompozitsiya xam uchraydi. Masjid dalonleri (galereya) shifti xam bulinmalarga taksimlangan. Bulinmalar bir-biridan tusinleri iunalishining uzgarib turishi, bulinma yuzasining nakshu nigori bilan ajralgan. Bu tadbir nafakat shift, balki masjid tashki kompozitsiyasini xam boyitgan. Misol tarikasida Yorkentdagi Juma masjid tasvirini keltiramiz.


*Yuqorida uktirib utilgan, ya'ni bir, ikki, uch tomoni ayvon bilan aйлantirilgan bir, ikki, turt ustunli xonakoxli masjid tor qishloqlarida xam ko`p uchraydi. Ularning intereri oddiy komiozitsiyaga ega. Toglarda masjid intereri ustunlariga aloxida e'tibor berilgan. Ular oddiyrok yoki kismlarining yaxlitligi bilan ayvon ustunlaridan ajralishi mumkin. Pekin masjid ichidagi ustun ayvondagidan ancha kalin bo`lgan. Ular interer kompozitsiyasining salobat-li bulishi uchun ko`proq xizmat qilgan. Shu bilan birga tor maejidlarida toshdan terilgan salobatli va marmardan ishlangan nafis ustunli intererlar xam uchraydi.*

*Shuningdek, toglarda xam shifti, mexrobi rang-barang bezak bilan boyitilgan maejidlar xam uchraydi. Shular jumlasiga Toshkurgon, Dar-Dar tor kishloklari masjidleri kiradi. Intereri muxtasham bezakli maejidlar Farrona tor kishloklarinish deyarli ko`pchiligida mavjud. Maejidlar ichki kurinishi xakida fikr muloxazalarimizga yakun yasab, kuyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin.*

*O`rta asrlarda masjid xonakoxi bir, ikki tomoni ochik, shuningdek, atrofi ayvon bilan aйлantirilgan tarxda ko`p uchraydi. Xonakox gumbazi ravokleri turt, olti ustunga o`rnatilgan. Intererining mexrob, ayrim xollarda ustun va ravoklarining kuringan joylarida ganch uy-makorligi qo`llanilgan. Shuningdek, pishgan rishtdan xilma-xil kalash yuli bilan turli shakl va yuzalar chikarilgan. Turli tuzilishdagi sha-rafalar yordamida konstruktiv asoslarning gar-dishi va bushlikleri tuldirilgan.*

*XIV aerning O`rtalaridan boshlab salobatli jome masjidleri kurulishiga aloxida e'tibor berila boshlandi. Ular kompozitsiyasida hovli va ayvon keng qo`llanilgan. Rang-barang bezak ishlash keng joriy etiladi.*

*XIX aerning oxirlarida Markaziy Osiyoning maxalla va deyarli barcha qishloqlarida, shu jumladan, tor qishloqlarida bir, ikki, uch tomoni ayvonli va xonakoxi bir, ikki, turt, olti va undan ortik ustunli tarx, keng qo`llanilgan. Farrona vodiysida xonakox, bir yoki ikki tomo-nidan chukur ayvonga ega tarx keng qo`llanilgan. Bezak mexrob kismida va zarurat yuzasidan to`sinli shiftlarda qo`llanilgan.*



## 2.2 Hammom

*Sharqda xammom shaxarning eng shifobaxsh, jismonan va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan imoratlaridan biri Xisoblangan. Shark xammomlarining shifobaxshligi Bukrot, Ibn Sino, Kaykovus kabi ko'plab daxo, mutafakkir, tarixnavis, sayyoxlar tomonidan e'tirof etilgan. Hammom kurilishiga Markaziy Osiyoda xam kadim zamonlardan buen aloxida e'tibor berib kelingan. Olimlarimiz xammomlarni tarxi va tarzi jixatidan, asosan ikki guruxga bulishadi: tulik, ya'ni "klassik" va tuliksiz kurinishdagi xammomlar. Klassik turdagi xammomlarning umumiy tuzilishi tugri turt-burchakka yakin bo'lib, asosiy xonasi - miyonsa-roy imorat markazini egallagan. Ikkinchi turdagi xammomlar kam xonali, soddarok, tuzilish jixatidan "G" xarfi shaklida, asimmetrik, oddsh! va uzunchok shaklda bo'lgan. Uzunchok tuzilish-dagi xammomlarda xonalar ketma-ket bir kator-da joylashgan.*

*Markaziy Osiyoda XI-XII asrlarga oid xammomlar Taroz (hozirgi Jambul), Niso (Turk-maniston) shaxarlarida ochilgan va o'rganilgan.*

*Ularning tarxida asosiy xona-miyonsaroy xammom markazidan urin olgan. Mazkur xammomlarning umumiy kurinishi, ya'ni barcha devorlari saqlanmagan, lekin ularning XIX-XX asr boshlarida qurilgan xammomlarniki-ga uxshashligi yakkol kurinib turadi. Shuning uchun xam mazkur xammomlar tuzilishi jixatidan birinchi turdagi xammomlarga kiradi.*

*XIX-XX asr boshlarida qurilgan xammomlar bir nechta "lungi xona", "garm xona", "xunuk xona" va miyonsaroy kabi xonalardan tashkil toptan. Miyonsaroy xonasi uzining joylanishi, kattaligi. tuzilishi bilan qolgan laridan ajralib turadi. Miyonsaroyni tarxda sakkizburchak tuzilishidagi supa egallaydi. Miyonsaroy devorlari buylab xam supalar o'rnatilgan. Miyonsaroy kunincha xammom tarxida markaziy urinni egallaydi. Shuningdek. u xammom tarxida chap yoki ung tomondagi tashki devorga kaphishgan xolda kelishi mumkin. Jumladan, Buxorodagi Sarrafan, Samarkanddagi Pan-job xammomlarida miyonsaroy kirish eshigining chap tomonidagi tashki devor bilan chegaradosh. Buxorodagi Misgaron, Samarkanddagi Xujum xammomlarida esa miyonsaroy-unt gomon tashki devori bilan chegaradosh. Toshkent shaxridagi XIX asrga oid Chorsu xammomi miyon-saroyidan (katta gumbaz) oltita eshik orkali tukkizta xar xil kattalikdagi xonaga utiladi. Ular orasida miyonsaroy uzining kattaligi bilan dominantligini saqlab koladi. Miyonsaroy-ning xamma tomonida eshik buganligi sababli to'rtburchak tuzilishidagi supa uning markazida joylashgan.*

*Miyonsaroy gumbazi sakkizburchak kanoslariga o'rnatilgan kalkonsimon ravoklar ustida joylashgan. Gumbaz markazida kubba shaklidagi kismi bo'lib, uning yon devorlarida panjara bilan tusilgan ravoklar nazarda tutilgan. Ulardan miyonsaroyga yoruglik tushib turgan.*

*Miyonsaroy ichki kurinishi uning konstruktiv asoslari xisobiga kishi dikkatini tortadigan kompozitsiyaga ega. Jumladan, gumbaz gardidi ostidagi*

*kalkonsimon ravokchalar, miyonsaroy markaziy uklari tugrisidagi devorlarning tokcha shaklida tashkariga surilishi, ularni katta ravoklar ichiga olinishi va panjaradan tushayotgan yorug`lik natijasida yorug` va soyalar yuzalarning vujudga kelishi miyonsaroy intererini jonlantirib yuboradi.*

*Ikkinchi turdagi xammomlarning ko`proq kaxalla va kishloklarga xosligiga arxeologii ashyolar xam guvoxlik beradi. Jumladan, arxeologlar tomonidan IX-XI asrlarga oid xammom Xuttal voxasining Manzar qadimiy shaxar-chasidan tonilgan. U uzunchok tuzilishda bo`lib, birin-ketin bir katorda joylash-gan. Mazkur xam-kom tuzilishi jixatidan Yukori Zarafshon tor qishloqlarida XVII-XX asr boshlarida gurilgan xammomlarga uxshab ketadi. Ularda ich xonalar anfilada tuzilishida biridan ikkinchisiga o`tiladi.*

*Birinchi va ikkinchi turdagi xammomlar kompozitsiyasida choyxona kurish odati O`rta Osiyoning barcha xududlarida keng tarqalgan. Choyxonalar tarxda tugri to`rtburchak tuzilishida bulagan shiftini bir, ikki kator ustunlar ushlab - turadi. Kuyincha choyxonalarining ikki yon tomoni supa bilan chegaralangan. Choyxona devorlari shifti xam serjilo nakshu nigorga ega.*

*Xammomlarning bezakka ega bo`lganligi arxeologik dalillar va tarixiy manbalar uygunlik beradi. Taroz xammomi devorlariga kizil, tuksarik, moviy va kulrang buyoklarda geometrik va usimliksimon nakshlar ishlangan. Niso shaxrida xammom devorlaridagi usimliksimon, geometrik nakshlar va yozuvlar, tuq sariq, kinovar zil. kora va ok ranglarda ishlangan XII asrga oid Rabota Malik karvonsaroy majmuasidagi xammomning issikxonasi devorlarida ok rangli zaminda kizil, sarik, kora ranglarda nakshlar ishlangan. X asr muallifi al-Ma`sudiy uzining asarlaridan birida xammomlarda boshi odam yuziga monand kilib ishlangan afsonaviy Anko kushi tasviri ko`p uchraydi, - deb yozadi. Hammom devorlarida tasvirlar bo`lganligiga Sa'diy Sheroziy, Hofiz Xorazmiy she'rlarida ham ishora mavjud. Jumladan, Sa'diy Sheroziyning "Buston"ida, xammom devorida bamisoli xur xusnli shayton tasviri ishlanganligi kuyidagicha bayon etilgan.*

*Xammom ichki va tashki kurinishini ifoda-lagan O`rta asr miniatyuralarida xam uning devorlarida tasvirlar ifodalangan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Xamsa" siga ishlangan miniatyurada xammomning asosiy yuvinish xonalaridan birida (miyonsaroy) ravokning ikki yon tomonida bir-biriga karab uchayotgan kanot-li farishtalar tasviri ayol timsolida ifodalangan. Ikkita xursimon kanotli ayollarning tasviri "Maj-nun Makkada" miniatyurasida Ka'ba toshining orka knsmida ifodalangan. X,ammamizga ma'lum, islom akidalariga binoan farishtalar doimo toza, pok odamning ikki elkasida va pok, mukaddas joylarda bulishi xakida aytiladi. Demak, xammom ravoki (timpanlarida) ikki yon tomonida farishtalar tasvirining ishlanishi, xammomning poklik, tozalik manbai ekanligini ifodalashga karatilgan. "Majnun Makkada" miniatyurasida esa musavvir Makkaning mukaddas joy ekanligini eslatmokni, yoki Majnun uz muxabbatiga vafodor pok*

*insonligiga guvoqlik berish uchun xur farishtalar tasvirini chizgan bulishi mumkin.*

*Xammom intererida badiiy tasvir va usimliksimon nakshlarning borligi, kadimdan kishilar xammomning salomatlikka ijobiy ta'sir kursata olishiga ishonganliklari-dan dalolat beradi. IX - X asrlarda yashagan tabib Zakiriya al-Rozi xam bu xakda yozib koldir-gan. U, basharti xammom, kishi a'zolariga*

*ta'sir kursatib, uni ma'naviy, jismoniy, tabiiy kuchlardan bushashtirar ekan, uning ramgin kayfiyatini yaxshilash va tashvishlardan forur bulishi uchun xammom devorlariga serjilo nakshlar chizishni tavsia etadi. Xammom devorida nakshlarni O`rta asr minniatyuralarida xam kuramiz. XVII-XIX asrlarda qurilgan xammom-larda bezak vazifasini konstruktiv asoslar, funktsional kismlar bajargan. Ular xam xammom intereriga badiiylik bagishlagan. Umuman, xammomlarda funktsiyaga ko`proq e'tibor berilgan. Xammom intereri kompozitsiyasida miyonsaroy nafakat balandligi, kengligi, yorur-ligi, markazidagi supasi bilan, balki joylashi-shi bilan xam dominant vazifasini egallaydi. Chunki miyonsaroy xammom markazida joylash-gan tarxda, uning markazidan gorizontaal chizik-larga nisbatda 45° da turta yunalishda kushni xonayaarga utish darchalari koldirilgan. Xammom atrofidagi xonalar miyonsaroyga kompozitsiya jixatidan buysungan. Bu uz navbatida miyonsaroyning asosiy xona bulishini ta'minlaydi. Miyonsaroy tashki devor tomon siljiril-gan xolda xam uzining vazifasi, kattaligi bilan xammom tarxi va tarzi kompozitsiyasida dominantligini saqlab qolgan .*

## **2.3 Savdo inshootlari**

*O`rta Osiyo shaxarlarida savdo markazlari kurilishi xam uzok utmishga borib kadaladi. Ularning aksariyati xozirgi kunda arxeologlar tomonidan ochilganicha yuk- Arxeologlar ilk O`rta asrlarga oid markaziy kucha buylab joylash-gan ko`p bulinmali savdo inshooti Panjikentda bo`lganligidan guvoxlik berishadi. O`rta Osiyoda savdo inshootlari bir necha turda bo`lgan. Ulardan biri dukon deb atalgan. Dukon oddiy tekis ttemli va bir bulinmadan tashkil topgan. X,unarmandlar unda uz maxsulotlarini tayyorlab sotishlari yoki fakat tayyorlashlari xamda fakat sotishlari mumkin bo`lgan. Bunday inshootlar bir nechta dukondan tashkil topgan bulishi xam mumkin. Shunday dukon bo`lganligi xakida ma'lumotlar Vokifnomalarda xam yozib koldirilgan.*

*Savdo inshootlari kuchaning ikki tomoni buylab uzunasiga qurilgan dukonlardan tashkil topgan bulishi mumkin. Uzunligi 800 metrli shunday tuzilishdagi dukon Ush shaxrida bo`lgan. Ularda xunarmandlar uz maxsulotlarini tayyorlashgan va sotishgan.*

*Rastalari kuchaning ikki tomoni buylab o`rnatilgan savdo inshootlari Samarkandda xam bunyod etilgan. Soxibkiron Amir Temur buyruriga binoan XIV asr oxirida Samarkandda markaziy kuchalardan biri, Oxanin darvozasidan to Buxoro yuliga olib chikadigan kismini kengaytirib, uning ikki tomonida kator dukonlardan tashkil topgan savdo rastalari kurishga farmon beradi. Ryui Gonzales de Yuxavixonning xabar berishicha, mazkur kucha kengaytirilgan va uning ikki tomoniga dukonlar tiklangan, xar bir dukon oldida oshyuk toshlar bilan koplangan kursilar o`rnatilgan. Butun kuchaning usti ey shaklida gumbazlar bilan yopilgan bo`lib, ulardan yorurlik tushib turishi uchun tuynukchalar koldirilgan. Buxoro, Farrona va Shaxrisabzga olib boradigan kuchalarning kesishgan joyida markaziy savdo maydonida Timi Kulux Furushon savdo inshooti kuriladi.*



*Markaziy Osiyoda ikki kuchaning kesishgan joyida chorsu va turt kucha buylab yunalgan savdo dukonlari bo`lgan. XIX asrning ikkinchi yarimida Toshkentda Chorsu bozori sakkizta kuchani birlashtirgan. Chorsu bozori untaga yakin savdo maydonlarini va kirkka yakin savdo-xunarmandchilik rastalarini uz ichiga olgan. Chorsu bozorida turt yarim ming-ta dukon bo`lgan. Rastalar kuchaning ikki tomoni buylab joylashtirilgan. Rastalarni kucha O`rtasini egallagan baland tim birlashtirgan. Tim yogoch tirkagich va tusik-lardan tashkil topgan. XVI asrda Buxoroda qurilgan Toki Sarrafon, Toki Telpak-furushon, Toki Zargaron, Abdullaxon timi ka-bi savdo inshootlari tarxi, tuzilishi bilan dikkatga sazovordir. Mazkur inshootlar olti yoki sakkizburchak tuzilishga ega. Ularning barcha-sida markaziy katta savdo gumbazi (zali) mavjud. Savdo inshootlarining markaziy kismi nafakat tarxda balki tarzda xam baxavoligi bilan dominantligini sakdab koladi. Jumladan, Toki Sarrafon inshootida markaziy gumbaz ravoklarning kesishuvi konstruktiv asosiga o`rnatilgan. Natijada yarim gumbaz ustida bu-tun gumbaz yuzaga kelgan. Markaziy gumbaz interyeri ukklaridagi*

ravokdar va gumbaz konstruktiv asoslari xisobiga murakkab va guzal kuri-nishga ega. Toki Telpakfurushon ikkita kuchaning kesishgan joyida kurilib, anfilada tuzilishida yuzaga kelgan beshinchi yulakni tashkil kiladi. Toki Telpakfurushonda markaziy gumbaz gardishi bilan oltiburchak asos orasida baland ravokdar katori mavjud. Ulardan tushgan yoruglik gumbazni yanada baland va baxavo kurinishiga ijobiy ta'sir kursatadi. Bu inshoot markazi ravoklar katori xisobiga ancha nafis, engil kurinishga ega. Toki Zargaronda 30 dan ziyod zargarlik ustaxonasi joylashgan, unda markaziy sakkizburchak asos usti kalkonsimon ravoklar yordamida doyra gardishiga keltirilgan. Uning ustida Toki Teliakfurushon inshootidagiga nisbatan pastkamrok kagor ravokchalarga bulingan poygumbaz o`rnatilgan. Inshootning markazi poygumbaz ravokchalari oraligidagi tuynuklar orkali yoritilgan.

Abdullaxon timi tarxi juda anik va nafis tuzilishga ega. Uning markazi atrofi buylab burchaklari doirasimon turri to`rtburchak rastalarni birlashtiradi. Markaziy gumbaz turtta murakkab tuzilishdagi juft poyustunga o`rnatilgan. Poyustunlar markaziy va atrofi-dagi gumbazlardan tushgan orirlik kuchini kamaytirishga karatilgan. Juft poyustunlar xamma tomonidan, galereya tuzilishida joylashgan rastalar ikki tomonidan savdo kilishga muljallangan tokcha tarzidagi bulinmalarga ega. Toki Sarrafon, Toki Telpakfurushon, Toki Zargaron, Abdullaxon savdo timi inshootlarining markaziy gumbaziga kuchalar buylab anfilada shaklida yunalgan gumbazli rastalar galereyalar borib tutashgan. Xar kanday xolatda markaziy gumbaz intererda uzining xashamatligi, tantanavorligi, yorugligi bilan dominantligini saqlab qolgan . Toki atrofidagi rastalar tarx va kompozitsiya jixatidan xam markaziy gumbazga buysungan. Xaridor tokining kaysi rastasida bulmasin, uning dikkat e'tibori markaz tomon buladi. Shuning uchun xam xaridor markaziy gumbaz tomon intiladi.

Umuman olganda, mazkur inshootlar ichki kurinishi uz vazifasiga tulik javob beradi. Inshootning kucha buylab yoki kuchalarning kesishgan joylarida kurilishi xam xaridor va sotuvchi uchun juda kulaylik yaratadi. Uz navbatida xari-dorni jalb etish xususiyatiga ega. Iulovchi xoynaxoy savdo rastalaridan utib, yul-yulakay xarid kilib uz yunalishini davom ettira olgan. Ulardagi konstruktiv asoslar savdo kilish uchun tokcha tuzilishida bulinmalar yara-tish va O`rtada yulak koldirish imkonini beradi. Gumbaz ostidagi ravokchalar katori inshoot markazini yoritish imkonini bergan. Ravokchalardan tushayotgan yoruglik, kuyosh nurlari markaziy gumbazni yanada baland kilib, salobatli bulib kurinishiga omil bo`lgan. Shuni xam aytish joizki, konstruktiv kismlar bezak vazifasini xam utagan. Ular obida ichki kurinishiga baxavolik, tantanavorlik bagishlagan.

Demak, savdo inshootlari intereri eng serzavk va gavjum joy xisoblangan. Ularning tarxdda xar bir burchak, konsfukgiv kisdha xar bir element funktsiya bajarishga karatilgan. Ularning ichki kurinishi xam funktsiyasidan kelib chikkan xolda uziga xos badiiylikka ega.



## **Hulosa**

*O'zbekiston Respublikasi hududida me'morchilik va binokorlik qadim zamonlardan - miloddan avvalgi III minginchi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, X minginchi yillardan boshlangan.*

*Qurilish texnikasi takomillashgan binolar IX - X asrlarda asosan pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Monumental binolarda toq-gumbaz konstruksiyalari keng qo'llanilgan. Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni man etganligi tasviriy san'atning o'sishiga keng imkon bermagan, biroq naqqoshlik rivoj topa boshlagan. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar naqsh bilan bezatila boshlangan.*

*IX — X asrlardan girih san'ati yuksalgan, arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarilgan. X asrdan kufiy, XI -XII asrlardan nasx yozuvi me'morchilikda ko'p ishlatila boshlagan. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrdan boshlab saroylar shahar tarkibida barpo etilgan. Saroy me'morchiligida yog'och konstruksiyalardank o'p foydalanilgan.*

*Somoniylar davrida amaliy-bezak san'ati, ayniqsa kulollik, shishasozlik, yog'och o'ymakorligi yaxshi suratlar bilan rivojlangan. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berilgan, turar-joylar, hunarmandlarning ustaxonalari, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammom, masjid, maqbara, minora, madrasalar qurilgan. Qurilishda, asosan, pishiq g'ishtdan foydalanilgan. Ba'zan bino devorlari xom g'ishtdan, tomi - gumbazi tashqi tomondan pishiq g'ishtdan ishlangan, xom g'ishtdan ishlangan devor pishiq g'isht bilan qoplangan va mustahkamlangan.*

*Mo'g'ullar istilosi oqibatida ko'pgina shaharlar vayron bo'lgan. Mo'g'ullar bosqini tasviriy san'atga ham, arxitektura, amaliy-bezak san'ati rivojiga ham to'sqinlik qilgan.*

## ***II.Arxitekturaviy bo`lim***

*Rahbar:*

*TurdiyevA. A*

*Bitiruvchi:*

*Saidazizov B.H.*

# **1. “Qovunchi tera” ning qiyofasini o`xshamalar (аналоглар)asosida aniqlash**

## **1.1 Shohruxiya**


*Sirdaryoning o`ng sohili, Ohangaron daryosining Sirdaryoga qo`shilish joyidagi karvon yo`li yoqasida joylashgan shahar o`z davrida bir necha nomlar bilan ya`ni Binokat, Sharqiya va Shahruxiya deb atalgan. Bu arxeologik yodgorlik milodiy I – XVIII asrlarda juda gavjum bo`lgan. Shohruxiya harabasini havaskor arxeolog D.K.Zatsepin, Ye.T.Smirnovlar o`rgangan. 1973 – yildan Shosh – Iloq ekspeditsiyasi tekshiradi. Tadqiqotlarga ko`ra dastlab uning mudofaa devori bo`lmay, atrofidagi daryo, shuningdek jarliklar tabiiy mudofaa vositasi rolini o`tagan, ilk o`rta asrda burjli mustahkam mudofaa devori bilan o`ralgan. Shohruxiya hududi 22 ga bo`lib, arki taxminan 1 gani egallagan. XII – XIII asr boshlarida 140ga gacha kengaygan, u ark, 3 shaxriston va raboddan iborat bo`lgan. Qazishmalar natijasida turli sopol buyumlar, tanga pul va taqinchoqlar topilgan. Shohruxiyada zargarlik to`qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqalar rivojlangan, mis, kumush tangalar zarb etilgan. Mo`g`ullar istilosi davrida Shohruxiya vayron bo`lgan.*

*Sohibqiron davrida saltanatda juda katta obodonchilik ishlari olib borilgan. Bunga Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda qurilgan me`moriy majmualar, Samarqand atrofidagi dunyoning yirik shaharlari nomi bilan atalgan Damashq, Misr, Bag`dod, Sultoniya, Forish, Sheroz kabi qishloqlarni ko`rsatib o`tish joizdir.*

*Obodonchilik, sug`orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha - hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarning taraqqiyotiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Amir Temur va Mirzo Ulug`bek davrida tog`kon ishlari yo`lga qo`yilib, turli ma`danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. Hunarmandchilikka katta e`tibor tufayli shaharlarda maxsus gilamdo`zlar, sandiqchilar, shishasozlar, egarchilar, zargarlar mahallalari ko`paydi, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurildi. To`qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik, me`morchilik sohalari asosiy o`rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahallalari vujudga kelib, bu*

*shaharlar savdo va madaniyat markazlariga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar to`qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar - atlas, kimhob, banoras, duxoba, horo, debo kabi gazmollar to`qilgan bo`lib, ular mahalliy va xorijiy savdogarlar tomonidan xarid qilinar edi.*


*Keng qamrovli shaxarsozlik ishlarini nafaqat Amir Temur, balki uning o`g`li Shohrux xam olib borganligi ma'lum. 1370 yilda Amir Temur poytaxt shaxar sifatida Samarqandni belgilagandan keyin xam Kesh viloyatining bosh shahri Shaxrisabzga o`z e'tiborini susaytirmadi. XIV-XV asrlardayoq Shaxrisabz yonidagi Kitob o`rnida joylashgan qadimgi Kesh u bilan maydon jixatidan boshlanmagan edi. 1392 yilda Amir Temur Shohruxiyani qayta tiklab, o`g`li Shohrux sharafiga Shohruxiya deb atagan. XVIII asr boshlarida o`zaro urishlar natijasida vayron bo`lgan. Shohruxiya harobasini bir qismini Sirdaryo yuvib ketgan.*




*Shohruxiya hududini o`shish dinamikasi*



*Shohruxiyani qadimgi davrdagi umumiy ko`rinishi*



*Shohruxiyani rivojlanish davridan oldingi umumiy ko`rinishi*



*Shohruxiya va uning urbanizatsiyadan oldingi o`ralgan hududi*

*Ko`hna Shohruxiyaning hozirgi qiyofasi*





## 2.2 Qanqa

*Katta Xan sulolasi tarixida “qang’lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyunidagi Bityan shahrida” deb ma’lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyuning nomi uchramaydi. Binobarin, uning qayerda joylashganligi aniqlanmagan. K.Shoniyozov Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblaydi. Chunki tarixiy manbalarda aytilishicha Yaksart-Sirdaryo bo’yida qadimgi Kanxa – Qanqa shahri xarobalari joylashgan. Yu. Buryakov uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar olib borishi natijasida Qanxa shahri mil.avv. III va II asrlarda paydo bo’lganligini aniqladi. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan vaqti Kanxa shahri paydo bo’lgan davrga mos keladi. Bu nomlar bitta shaharni ikki nom bilan atalishidir. Ushbu shahar Sirdaryoning o’ng irmoqlaridan biri Ohangaronning quyi oqimida (hozirgi Toshkent vil. Oqqo’rg’on tumani hududida) joylashgan.*

*Qanqa xaqida dastlabki ma’lumotlar “Avesto”ning eng eski qismlari bo’lgan dashtlarda Turon qabilalarining turar joylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224-651 yy) manbalarda bu shahar “Kandesh” yoki “Qandez” shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning shohnoma asarida ham Qanqa shahri bir necha marta tilga olinadi. Undan tashqari o’rta asrlar geograflari asarlarida bu shahar “Kankrak”, “Xarashkent”, “Tarband” nomlari bilan eslatilib o’tiladi.*


*Manbalar Qang’ podsholarining nomlari xaqida malumotlar bermaydi. Faqat shu narsa ma’lumki, ular o’z nomlari bilan birgalikda, urug’ nomini ham qo’llaganlar va “Qang’ xonadoni hukmdori” deb atalganlar. Qang’da saylangan hukmdorning hokimiyati oqsoqollar kengashiga tayanganlar va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qo’yilganini kuzatish mumkin. Qang’ hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi ma’lum. Ammo, kengashdagi zadagonlar qanday atalganligi turli bahslarga sabab bo’lgan. Antik davrdagi usunlar, yuechjilar va qang’larning hukmdorlari yabg’u (xitoy manbalarida chaovu) unvoni bilan atalgan.*





*Mil.avv. IX-III asrlarda, ya’ni Burg’ulik (Burkanli) madaniyati rivojlangan davrda mehnat qurollarining barchasi asosan tosh va bronzadan yasalgan bo’lsa, qang’lilar davriga kelib temir buyumlar keng tarqalgan. Mil.avv. II – mil IV*

asrlarda Toshkent vohasida chorva qo'shib omoch bilan yer haydash keng rivojlangan edi. Shuningdek, bu davrda yerni sun'iy sug'orib ekin ekish, katta va kichik kanallar qazish, suv inshootlarini bunyod etish ham taraqqiy topadi. Vohalarda yashovchi o'troq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Yozma manbalarda bu aholining sut-qatiqlari va zotdor otlari borligi haqida ma'lumotlar beriladi. Chorva mollarning ko'pchiligi ko'chmanchi va yarim o'troq aholi ixtiyorida bo'lgan. Ko'p sonli chorva mollari esa mavsumga qarab bir joydan ikkinchi joyga haydab boqqanlar. Qang' podsholari va ularga yaqin bo'lgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar bo'lishgan. Ular bahor kelishi bilan yaqinlar, qarindosh-urug'lari bilan birgalikda yozgi qarorgohdan ya'ni O'troga borib yozni o'tkazganlar. Kuzda esa qishlovni o'tkazish uchun Qanqaga qaytib kelganlar.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, qang'larning ko'pchiligi shaharlarda va katta-kichik qishloqlarda yashaganlar. Shaharlar mustahkam himoya inshootlari bilan o'rab olinib, ularda qal'alar ham mavjud bo'lgan. Ko'pchilik shaharlarning avvaldan o'ylangan rejaviy tizim asosida qurilganligi Qang' davlatida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mustahkam himoya inshootlari va qal'alariga ega bo'lgan shaharlarda hamda yirik qishloq va qo'rg'onlarda yirik qabila boshliqlari, urug' yoki jamoa oqsoqollari, boy-badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashaganlar. Turar-joylar asosan paxsa va xom g'ishtlardan qat ko'targan. Qang' davlati aholisining ko'pchilik qismi tarqoq xolatda kichik-kichik qishloqlarda, yerto'lalarda, kapa uylarda va o'tovlarda yashab yarim o'troq va ko'chmanchi turmush tarzi yuritganlar.





## **2.3 Shosh tepa**

*Shoshtepa ko'p qatlamli arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshkent shahri hududida qad ko'targan eng qadimiy qishloq va ilk qo'rg'on – Chochkatning harobalari. Yodgorlik Jo'nariqning chap va o'ng sohillarida joylashgan biri tik va baland, ikkinchisi yassiroq ulkan tepaliklardan iborat. Umumiy maydoni taxminan 25 ga. Dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garage a'zosi N.S.Likoshin tomonidan qayd etilgan, N.P.Ostroumov arxeologik qazishlar o'tkazgan (1896y.); G.V.Grigoryev tekshirgan (1934y.); N.I.Krashennikova (1956y.); G.Dadaboyev (1970y)lar arxeologik kuzatishlar olib borgan. 1978 – yildan Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan muntazam arxeologik qazishlar o'tkazilgan. Tadqiqotlarni hozirgi vaqtda M.I.Filanovich davom ettirmoqda.*

*Jo'nariqning so'l sohilida joylashgan baland 18 – 19 metrli tik tepa (maydoni 150 – 120m) istehkomli ilk qishloq harobasi bo'lib, uning ostki madaniy qatlamlaridan qadimgi dehqonchilik, Burganli madaniyatining so'ngi bosqichida yashagan o'troq ziroatkor aholi turar joylarining qoldiqlari qayd etilgan.*

*Arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi 3 – asrda Janubiy Ural va Sharqiy Orol oldi mintaqalardan janubga tamon siljigan ko'chmanchi chorvodor sarmat qabilalari qadimiy Chochkatni vayron etib, qabristonga aylantirganlar.*

*Miloddan avvalgi 2 – 1 asrlarda Shosh tepada qadimiy qishloq harobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rab olingan doira shaklidagi qal'aqo'rg'on qad ko'targan. Qalinligi 4 metrli qo'rg'on devori yirik xom g'ishtlardan urib chiqilgan. Diametri 60 metrli qo'rg'on devorining ichki aylanasi bo'ylab tomi ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo'lak bino qilingan. Yo'lak qismlarga bo'lingan va har biridan tashqariga chiqadigan darvozasi bo'lgan. Qo'rg'onning markaziy qismida xoch shaklida monumental bino qad ko'targan.Uning devorlarini qalinligi 2 metr, tomi esa ravoqsimon. Bino qator xonalar va yo'laklarga ajratilgan. Peshtoqi binoning shimoliy qanotida, u ravoqli darvozaxona va uning 2 biqinida paykonsimon darchalar joylashtirilgan. Qo'rg'on binosining umumiy tarxi: yo'lakli aylanma tashqi devoriyu, xochsimon markaziy binosi, ravoqli peshtoqiyu paykonsimon darchalariga qaraganda, u*

*avvaldan anchagina puxta o'ylangan reja asosida qurilgan zamonasining nodir me'moriy obidalaridan hisoblangan.*



*Shosh tepaning madaniy qatlamlaridan ko'pdan ko'p ashyoviy topilmalar qayd etildi. Ular orasida uyro'zg'or va ho'jalik buyumlari: xum, xumcha, ko'za, bir quloqli va jo'mrakli ko'zachalar, 2 quloqli sopol qozonlar, tova, suvdonlar, ho'kiz boshli kabob qo'ralar, yoysimon yoro'choqlar, temir pichoq, o'roq va hokozolardan iborat. Topilmalar orasida 2 ta nodir buyum: fil suyagidan yasalgan qadahning bir bo'lagi va suyakdan ishlangan qalam, ayniqsa diqqatga sazovordir. Hajmi 5 – 3.5 sm.li suysk qadah parchasida boshida ulkan quloh, keng peshonali, ot yuzli, qirraburin, bodom qovoq, sersoqol va mo'ylovli o'rta yoshdagi kishining siymosi qabartma qilib tasvirlangan. Suyak qalamning uzunligi 15 sm. Bir tomoni yozish uchun uchli qilib, 2 – tomoni esa ilonni boshidek romb shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilmalar milodiy I – II asrlarga mansub bo'lib, Chochda ham qadimda xatsavod bo'lgani hamda Shosh tepaliklar karvon yo'li orqali Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan aloqada bo'lganidan dalolat beradi.*



*Topilmalar ko'chmanchi dasht bilan ko'proq dehqonchilik vohasi chegarasi uzoq asrlar davomida yonmayon yashagan hamda bir – biri bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan qadimiy qavmlarning yaratgan o'ziga xos madaniyatining mahsuli edi. Bu madaniyat fanda "Qovunchi madaniyati" deb ataladi.*

*Istehkomli qishloq sifatida qad ko'targan Shosh tepa miloddan avvalgi II – I asrlarda ilk shaharcha qiyofasiga kirib, u Sirdaryoning o'rta oqimida tashkil topgan Qang` davlatining dasht bilan Toshkent vohasiga tutashib ketgan chegarasidagi istehkom, hunarmandchilik markazi, ko'chmanchi chorvodor aholi bilan o'troq dehqonlar o'rtasida olib boriladigan o'zaro savdo bozori vazifasini o'tagan.*



*V – asr o'rtalarida chorvodor eftalilarning janubga tomon siljishi oqibatida Shosh tepada qadimdan o'tparastlik ibodatxonasi bo'lgan xoch shaklidagi markaziy bino qabristonga aylantirilgan. VI – VIII asrlar boshlarida Shosh tepada hayot yana ancha yuksalgan. Arab halifaligi istilosi natijasida Shosh tepa vayron bo'lgan. XI – XII asrlarda undagi hayot birmuncha jonlansada, ammo XVI – asrda Shosh tepa deyarli harobaga aylangan.*



*Garchi Shosh tepaga qad ko'targan qo'rg'on to'la shahar qiyofasida shakllanmagan bo'lsada, biroq u Toshkent vohasida shaharsozlik madaniyatini shakllanishi va rivoji tarxini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega yodgorlik hisoblanadi.*











## **1. “Qovunchi tepa” umumiy ko`rinishining grafik rekanstruksiyasi**

*Ilmiy tushunchalar hamisha o`zgarib kelgan, davr talabiga muvofiq tobora murakkablashgan. Yodgorlik tushunchasida ham hozirgi zamon ta'mirshunosligi bo'yicha ikki tomonlama: tarixiy va badiiy qimmatlar mavjud. O'z navbatida, ularning tarkibiy jihatlari bor. Tarixiy qimmat o'z ichiga nafaqat o'tmish to'g'risida ma'lumot beruvchi qimmatga ega. Balki hissiy qimmatga ham ega. Badiiy qimmat o'z ichiga estetik jihatlarni qamrab oladi. Me'moriy yodgorlik qurilgan davrni, uning ishlab chiqarish darajasini, muhandislik bilimlarini o'zida aks ettiradi. Yodgorlikning tipologiyasi o'tmish hayotning muhim tomonlarini aks ettiradi. Jumladan, madaniy aloqalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.*

*Qovunchi tepaning hozirgi shaharsozlik holatida tarixiy hudud turli sabablarga ko'ra harobaga aylangan. Turar joylar ham evalutsion o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Ularning qadimiy me'moriy va rejaviy tizimlari, uning dastlabki ko'rinishlari ham boshqacha tus olgan.*

*Qovunchi tepa tarixiy shahar ekanini inobatga olib, uning bizgacha tepalik holida yetib kelgan qismini konservatsiya qilish, muhofaza qilish va imkon darajasida ko`kalamzorlashtirish dolzarb vazifadir.*

*Manbalar, arxiv hujjatlarida berilgan ma'lumotlar Qovunchi tepaning dastlabki holatini butunlay bo'lmasada grafik tiklash imkonini beradi. Qayta tiklashga yetarli bo'lgan qadimiy me'moriy inshootlarni shaharsozlik holatidan kelib chiqqan holda qayta tiklash mumkin. Bu bilan shaharning tarixiy muhitini asl ko'rinishga olib kelishga imkoniyat tugiladi. Shaharning me'moriy ko'rinishlari, tarxlarini shu turdagi yodgorliklarni o'rganish natijasida ta'mir loyihasini ishlab chiqishning imkoni mavjud.*

*Qadimiy shaharlarga hos umumiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o'ralganligi va devor atrofi suv to'ldirilgan handaq bilan himoyalanganligidir. Devorning burjlari va o'q otish uchun maxsus shinaklari ham bo'lgan. Qal'ada hom g'ishtdan qurilgan katta saroy joylashgan. Shahar ichida honadonlar, savdo va hunarmandchilik markazlari bo'ligan. Davrlar o'tishi bilan shahar mudofaasi mukamallashib, bino - inshootlar takomillashib rivojlana borgan. Islom davriga*

*kelib, otashgoh va otashkadalar o`rnida masjidlar paydo bo`la boshlagan. Yangi turdagi ya`ni karvonsaroy, bozor, choyxona va hammom kabi binolar qurilgan.*


*Tarixiy hududning hozirgi qiyofasi*





*Taklif loyihasi*















## **Hulosa**

*Insoniyat er yuzida paydo bo`lganidan boshlab yakka holda yashagan emas. Urug` jamoalari, qabilalar, elatlar va xalqlarning shakllanishi natijasida ular o`rtasida savdo munosabatlari, tarixiy-madaniy aloqalarga ehtiyoj sezilgan. Insoniyat sivilizatsiyasining paydo bo`lishida ana shu elatlar, xalqlar o`rtasidagi savdo-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar katta ahamiyatga ega bo`lgan.*

*Yurtimizda shahar madaniyati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beruvchi arxeologik ma'lumotlar, shuningdek bu erda aholi qadim-qadim davrlardayoq o`troq yashab dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullanganligidan ham guvohlik beradi.*

*Bu davrda madaniyatlarning o`zaro ta'sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Markaziy Osiyoda jumladan, Vatanimizda shaharlarning ko`payishi, hunarmandchilik va ilm-fanning taraqqiy etishiga olib keldi.*

*Bu hududda shaharsozlikning rivoji miloddan avvalgi I - asrlar yoki milodning boshlanishi davrlariga borib taqaladi. Qanqa, Sharqiya, Dalvarzintepa, Kindiktepa va Qovunchi tepa kabi yodgorliklar "Qovunchi madaniyati"ningbirinchi bosqichlariga tegishlidir. Ular Sirdaryoning g`arbiy qismi tekisliklarida paydo bo`ldi. Ikkinchi bosqichda shaharlar cho`l va tog`oldi erlarida vujudga keladi.*

*O`rta asr sharq shaharlariga hos bo`lgan tizim "ark", "shahriston" va "rabod"lardan tashkil bo`lishi Qovunchi tepaga ham ta'luqli bo`lgan. Qal'a qalin devor bilan o`raglan va chuqur handaq bilan himoyalangan.*

*Qovunchi tepa bir necha bor tushkunlik girdobida bo`lib qayta o`z mavqeini tiklagan. Siyosiy va iqtisodiy bo`ronlar uning shaharsozlik, me'moriy va hududiy rivojlanishiga o`zining ta'sirini o`tkazdi.*

## ***III. Konstruktiv bo`lim***

*Rahbar:*

*Turdiyev A. A*

*Maslahatchi:*

*Yusufho`jayev S.*

*Bitiruvchi:*

*Narkuziyeva D. A.*

## **1. Qurilish ashyolari**

*Amaliyotda mahalliy sharoitlarni e'tiborga olgan har bir arxitektor ma'lum ashyolarni qo'llash imkoniyatini, ularga qo'yiladigan texnik, estetik, ekologik talablarni hisobga olgan holda baholay olishni bilishi kerak. Shuningdek, har bir arxitektor ishlab chiqarish asoslari haqidagi ma'lumotlar, xomashyolarning qisqacha xossalari, texnologik jarayonlarni hamda awal keng qo'llanilgan va zamonaviy arxitektura qurilish amaliyotida foydalanilayotgan bir qator ashyolarning nomlari hamda tasnifini ta'riflab berishni bilishi zarur.*

*Qurilish ashyolarining turlari va ularning sifati iqtisodiy ko'natkichlarga bcvosita ta'sir ko'rsatadi. Ashyo bilan ishlashda amaldagl arxitektura qurilish me'yorlari, qoidalari, tabiiy (geografiya, Iqlim) va ytimoiy (madaniy, milliy-psixologik) omillarni hisobga olish kerak.*

*Ashyolarni qo'llashda, ularning estetik tomonlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki pardozlangan sirtqi yuza sifati, ranglari, fasadlarning ko'rinishi binodan foydalanish jarayonida ko'z bilan ko'rish orqali qabul qilinadi. Arxitektura o'zining butun rivojlanish tarixida me'morlarning to'plagan bilimlari va tajribalariga asoslangan ijodiy yakkaxonlik usullari bilan taniladi. Qurilish ashyolari faniga arxitektor va dizayn mutaxassislari asosiy fan nuqtayi nazaridan yondoshish kerakligini ilk bor amalda tasdiqlash zarur.*

*Tabiat in'om etgan minglab har turli qurilish ashyolari qum, shag'al, rangli tog' jinslari va bog'lovchilar, sementlar, lok-bo'yoqlar, temir va ular asosida olinadigan sun'iy pardozbop ashyolarni, imkon boricha arxitektura loyihalarini yaratishda lan'at nuqtayi nazaridan yondoshgan holda qo'llashni talab etadi.*

*Pardozbop ashyolarni oqilona tanlash an'anaviy arxitekturaviy shakllarning o'zgarishiga olib keladi.*

*Qadimgi va o'rta asr me'morlari inshootning ancha yengil ashyolar bilan yopiladigan bibr sinch (karkas) tuzilmasining xossalari oldindan bilganlar. Biroq inshootning shakli va o'lchamlari chegaralangan bo'ladi. Zamonaviy (sinchli) inshootlar uchun yog'och o'rniga po'lat va temirbeton konstruksiyalarning qo'llanishi arxitektorlar uchun har xil o'lchamdagi va istalgan shakllarni amalda ishlatish imkonini beradi. Talabalar ashyolarning*

*arxitekturaviy shaklga ta'sir qilishini o'quv-loyihalash jarayonida, hajmiy-fazoviy kompozitsion maketlarini ishlash orqali bilimlarini oshirishlari mumkin.*

*Arxitekturaviy shaklning kishi ongiga ko'rsatadigan emotsional ta'siri ashyolarning fakturasi, rangi va ular yuzasidagi rasmlarning xarakteriga ko'p jihatdan bog'liq. Bino va inshootlar to'la-to'kis bitgandan so'ng, uning yaxlit ko'rinishi, ranglarni to'g'ri tanlab o'z joyida ishlatilganligi inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak. Arxitekturaviy shaklning mahobatli, og'ir va yengilligi, plastikligi, zichligini emotsional his qilishda foydalanilgan ashyolarning sirtqi yuzasining ko'rinishi va jozibasiga bog'liq ekanligini ham alohida e'tiborga olish kerak. Devor konstruksiyalarning yuk ko'tarish qobiliyati, ulardagi kuchlanishning zo'rayishi, binoning zilzila bo'lgan taqdirda zarbani qabul qilishga xos tomonlari rang berishda, relyefli, fakturali tabiiy tosh bilan pardozlashda o'z ifodasini topishi zarur. Agar binoning o'rta qavatlarini pardozlashda qo'llanilgan ashyo yuzasi relyefi g'adir-budurlik balandligining kamayishi mantiqan to'g'ri bo'lsa, u holda yuqori qavatlar uchun silliq fakturali ashyolarining qo'llanilishi ma'qul.*

*Pardozlashda ishlatilgan ashyoning sirtqi yuzasini qayta ishlash xarakteri shuni ko'rsatadiki, binoning quyi pardozbop plitalari go'yoki inshootning og'irligi ostida qolganligini va pastdan yuqoriga tomon so'nib boruvchi yuklarning og'irligini ushlab turganligini ramziy ma'noda anglatadi.*

*Aynan ishlatilgan ashyoning estetik tasnifiga bog'liqligidan tashqari kishi tasawurida hosil bo'ladigan ashyoning mustahkam va chidamlilik kabi texnik xossalari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Toshkent teleminorasi jahonda baland inshootlar qatoriga klradi. U erkin holatda turadigan inshootlardan biri bo'lib, bir qarashda yetarli darajada mustahkam emasdek ko'rinadi. Yetarli darajadagi nomustahkamlik haqidagi birinchi tasawur inshootning konst niktiv jihatlari — poydevorning joylashish chuqurligi atigi 10 12 metrni tashkil etganligi, suvli, nam joyga qurilganligi teleminora tepa qismining katta tebranma harakatlanishi bilan tanishganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq bu inshootning arxitekturaviy shakli uning yuqori mustahkam yig'ma temir konst ruksiyalardan tayyorlanganligi va bu konstruksiya baquwat to'rtta tayanchli poydevorga o'rnatilganligi bilan tanishilganda lining yetarli darajada mustahkam ekanligi sezila boshlaydi. Bino va inshootlarning ichki pardozi*

*tlhyolamlng estetik tainifi ichki arxitekturaviy muhitni qabul qiluvchi hal miuvclii omil desa bo'ladi.*

*Pardozbop ashyolarning fakturasi, sirtqi yuzasidagi rasmlarni Luilasli xonalarning funksional vazifalari, o'lchamlari, arxitektu-1.1VIV shakl va kompozitsiyasiga bevosita bog'liq. Masalan, kichik KOnalarda faktura qismlarining o'lehami chegaralangan bo'lishi lozim, aks holda faktura qismlari va interyerning o'lchamlarida uoaniqlik sc/iladi, xona esa yanada kichikroq qabul qilinadi. Yirik o'lchamli, faktura rasmlar bilan ishlangan ashyolarni katta KOnalaml pardozlashda qo'llash samarali bo'ladi. O'ta yaltiroq i in)', bilan ajralib turadigan pardozlash ashyolarining silliq fakturasi iiiuyiiii bachkanaroq qilishi mumkin.*

*Maxsus maqsad yo'lida ishlatiladigan ashyolar taqqoslani-layotganda, ular ichidan eng yaxshisini tanlashda kvalimetrik tah-lildan foydalanish zarur. Ta'mirlash ishlarida iqtisodiy ko'rsat-l il lilar ko'p jihatdan qo'llanilayotgan ashyolarga ham bog'liq.*

*Bino va inshootlar narxining taxminan 55—60 % ini qo'lla-niladigan asliyolarning narxi tashkil etadi. Bunda ashyolarning llhlatilishi jarayonida, ularning chidamliligi vajoibaliliginisaqlash kerak bo'lsa, ularning narxi bilan baholanmasligi lozim. O'zbe-kistondagi tarixiy inshootlar va yodgorliklardagi pardozbop sifatli ashyolarni odatdagi oddiy ashyolar bilan almashtirish o'rinlimi? Balki, bunday almashtirishlar iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'larmidi, lekin ma'naviy nuqtayi nazardan, ayniqsa chidamliligi bo'yicha hech qanday mazmun kasb etmasligini me'mor ustalar bilishgan.*

*Qirqib olingan va maxsus ishlov berilgan toshli ashyolarning tabiiy yoki sun'iyligidan qat'i nazar ularning fakturasi va ranglari tiniq, turli xil bo'ladi. Arralab yoki yorib olingan tabiiy tosh ashyolar — granit, gabbro, siyenit, diorit, dolomit, zich ohaktoshlar, qumtosh, kvarsit, marmardan ishlangan pardozbop qoplama plitkalar, yuz yillar davomida o'z ranglarini, shaklini saqlab kelmoqda. Hozirgi amaliyotda bunday ranglarni chiqarishga chaqiq toshlarning yuzasiga rangli silikatli glazurlar yoki emallarni sepish orqali ham erishish mumkinligi isbotlandi.*

*Shag'al-beton tabiiy tosh to'ldirgichlar, rangli sementlar uyg'unligida buyum sirtqi yuzasining rangini, jozibador va tiniq bo'lishida faol ishtirok etadi. Aytish joizki, axromatik rangli sementlardan foydalanilganda yuzaning ta'sirchan bo'yalishiga erishish mumkin. Rangli polixromli kompozitsiyalarni tanlashda, yuza rangini aniqlashda kolorimetrik usul qo'llaniladi.*

*Yuzalarni dekorativ beton bilan pardozlash ancha samarali bo'lib, uni tayyorlashda rangli sementlar yoki turli rangdagi to'ldirgichlardan foydalaniladi.*

*Xorijiy mamlakatlarda yengil to'suvchi konstruksiyalarni qo'llash ko'rsatkichi oxirgi 20 yil ichida 30—40 foizdan 70—75 foizga oshdi. Bino va inshootlardan foydalanish jarayonida energiya sarfini iqtisod qilish awalambor samarali issiqlikni saqlovchi ashyolarni qo'llashga bog'liqdir. Qurilishning samaradorligini oshirishda bino yoki inshootning hajm og'irligini kamaytirish katta ahamiyatga ega.*

*Zamonaviy qurilish ashyolar og'irligini 160 kg/m<sup>3</sup> kamaytirib, har turli buyum va konstruksiyalarni qo'llash asosiy maqsad bo'lishi kerak. Vaholanki, yengil ashyolarni qo'llab, energiyani tejashga doir ilmiy-amaliy ishlarning bajarish samaradorligini oshirish lozim. Issiqlikni kam o'tkazadiganyarimzich mineral tolali isilkichlar va yengil konstruksiyalar loyihada ko'rsatilsa, binoning Umumiy vaznini 4—5 martagacha yengillashtirish mumkin. Natijada hinoni qurishda mehnat sarfi 40 %ga kamayadi, ashyolarni tasliishga bo'lgan ehtiyoj 8 marta qisqaradi hamda sement va boshqa ashyolarning sezilarli ravishda iqtisod qilinishiga erishiladi. Isitkichli ashyolardan ishlangan to'suvchi konstruksiyalar qo'llansa, divorlarga teriladigan g'isht sarfini 2—2,5 sementni 2—3 martaga kamaytirish mumkin. Bunda konstruksiya og'irligiga ko'ra transport vositalariga bo'lgan ehtiyoj ham keskin kamayadi. Natijada devorlar narxi 2—30 % ga kamayadi, to'suvchi konstruksiyalarning issiqlik izolyatsiya xossalari yaxshilanadi. Yirik p;incli uy qurishda bir qavatli keramzit-beton devor panellarini mineral tolali yoki ko'pikplast (penoplast) isitkichli panellar bilan lmashtirish sement sarfini 2 marta kamaytiradi, mehnat unumi esa 20 % ga oshadi.*

*Zamonaviy arxitektura-qurilish amaliyotida energotejamkor Inihootlardan foydalanish jarayonida bir necha xossalarga ega bo'lgan: «pardozbop hamda*

*issiqlikni muhofazalovchi», pardozbop suvdan muhofazalovchi», «pardozbop tovushdan imihofazalovchi va shunga o'xshash ashyolarni qo'llashini Mmaradorligi yuqoridir. Ko'p funksiyani bajaruvchi ashyolar, Odttda, ikki va undan ortiq qatlamdan tashkil topadi. Ularning I in Inn Ishlatish jarayonida aniq vazifani bajaradi.*

*Shu bilan birga ashyolarning zararli muhitda buzilishi barcha zamonaviy ashyolarga xosdir. Masalan, hozirgi paytda zamonaviy shaharlardagi sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida paydo bo'ladigan chang oltinguguil hamda azot oksidini o'ziga tortib oladi, u o'z navbatida beton va boshqa bir qator ashyolarning yemirilishiga sabab boiadi.*

*Konstruktiv-pardozbop, oddiy pardozbop ashyolar, o'zlariga qo'yiladigan talablarga javob berishi shart. Masalan, sun'iy polimerlar asosidagi zamonaviy ashyolar ishlab chiqarishda birinchi navbatda binodan foydalanilayotgandagi texnik masalalar o'z yechimini topishi, sinchkovlik bilan (shu jumladan estetik nuqtayi nazardan ham) tahlil qilinishi kerak.*

## **2. Mudofaa devorlari onstruksiyasi**



*Qadimgi yunon manbalarida Baqtriya hokimi "ming shahar egasi" deb nomlangan va Farg'onada 70 tacha katta va kichik shahar bo'lgan deyiladi. Haqiqatdan ham O'rta Osiyodagi ko'pgina daryolar vohalarida ko'plab shahar harobalari endilikda jonsiz pastroq tepaliklar sifatida yastanib yotganligini ko'ramiz. Jumladan Ko'hna Kanka, Shosh tepa, Oq tepa, Shoxruxiya va Qovunchi tepa shahar harobalarini aytib o'tish kerak.*

*Eng qadimgi shaharlarga tegishli deb hisoblangan harobalar orasida o'ziga hos turar joylar bo'lib, ular atrofi devorlar bilan o'rab olingan shaharlardir. Bunday shaharchalarni o'sha vaqtda 40x40x10 sm o'lchamli xom g'ishtdan ikki yoki uch qator qilib yonma – yon tiklangan, usti ellips shaklidagi ravoq bilan yopilgan bir necha qator yo'laklardan iborat hudud tashkil etib, shahar maydoni maxsus devor bilan o'rab olinganligi aniqlangan. Shaharga kirish joylari maxsus labirint tarzida qurilgan darvozaxonadan iborat bo'lib, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan.*

*O'sha davrda qurilgan imorat turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular orasida shahar arklari o'zining muhtashamligi bilan ajralib turadi. Arklar odatda tuproq va loydan shibbalanib bunyod etilgan tepaliklarda qurilib, atrofi mudofaa inshooti sifatida qo'llanilgan chuqur chohlar bilan o'rab olingan tarzda barpo etilgan. So'ng mustaxkam poydevor ustiga o'lchamlari 35 – 60 x 22 – 44 x 8 – 12 sm.ga ega bo'lgan chorsi va 1:2 nisbatdagi uzunroq hom g'isht hamda lentasimon yoki 60 – 80 sm o'lchamdagi paxsa bloklaridan qasr binosi qurilgan.*

*Qovunchi tepa kompleksibutun hududning siyosiy - iqtisodiy markazi bo'lgan. Uning mazmun mohiyati islom davrida birmuncha o'zgaradi. Qovunchi tepako'rinishi erkin aval shaklida bo'lib, ark shaharning janubiy – g'arbidadumaloq shakldagi sahnda joylashgan bo'lib, aylana tarzidagi imoratdan iborat. Arkning tashqi devori xom g'ishtdan qurilgan. Bundan tashqari shaharning mudofa devori ham bo'lgan. Tashqi devorda har 40 m masofada burjlar joylashgan. Bu devor ham xom g'isht va paxsadan qilinib, qalinligi 1 metr dan oshiqroq va balandligi 8 metrga yaqin bo'lgan. Atrofi chuqur handaq bilan o'raglan. Barcha jomoat va savdo binolari qal'a ichida bo'lgan. Keyinchalik bozorlar rabodga ko'chib chiqqan. Qal'a devori va uning ichidagi inshootlar*

*ta'mirlanishi yoki qayta tiklanishi hamda yangi binolar qurilishi natijasida uning dastlabki tarxi va shaharsozlik ko`rinishi o`zgarib borgan.*




### **3. Devorlarning arxitekturaviy kompozitsion yechimlari**



*V-IX asrlarda ko'pchilik qadimgi shaharlar tiklandi. Yangilari karvon yo'llari bo'ylarida vujudga keladi. Shaharlarning tuzilishi avvalgi vaqtdagidan farqlangan. Oldingi dizyaar faqat siyosiy mavkega ega bo'lgan shaharlardagina o'z e'tiborini saqlab qoldi. Boshqalarida esa dizlar mavkelarini yuqotib harobaga aylandi. Adabiy manbalarda ular "kuvandiz" – ko'hna diz deb nomlanadi. Bu vaqtda shaharlarning asosiy qismlari odatda shaxriston deyilgan. Shahar rivoji davomida uning tevaragida rabod shakllana borgan.*

*Shaxarlar quduq ochiq ariq va sopol quvurlar yordamida suv bilan ta'minlangan. Yo'llarni va karvonlarni ximoya qilish maqsadida ko'plab rabodqurildi. Shaharlarni suv bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Aksari suv ariqlardan keltirilgan, hovuzlarda tutashtirilgan. Ba'zan yerostki sopol quvurlaridan foydalanilgan.*

*"Qovunchi madaniyati"ni yuqori yutuqlarga erishishi shundan guvohlik beradiki, asosan monumental binolarning qurilishida aql bilan ishlangan ravoqlar, gumbazlar arxitektura soxasida yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi.*

*Ushbu diplom ishida ko'rib chiqilgan manbalar asosida hamda qo'shimcha arxeologik qazishmalar yordamida qal'a devor, ark va barcha binolar poydevorlarining joyini aniqlash va konservatsiya qilish mumkin. Keyingi boblarda Qovunchi tepa kompleksining har bir inshootlarining tasnifi keltirilgan. Har bir inshootni qayta tiklash asrash, ta'mirlash uchun qilinadigan ishlarga oid takliflar ishlab chiqilgan.*





## **Hulosa**

*O'zbekiston Respublikasi hududida me'morchilik va binokorlik qadim zamonlardan - miloddan avvalgi III minginchi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, X minginchi yillardan boshlangan.*

*Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa, sinchli uylar qurila boshlangan. Bronza davrida O'zbekiston hududining janubida murakkabarxitektura komplekslari vujudga kelgan. Bronza, kumushdan nafis zargarlik buyumlari, idishlar tayyorlangan, sopol idishlar bo'yalib geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Qovunchi tepadan topilgan sopol buyumlar (shakl jihatdan turli-tuman: qozon, xurmacha, xum piyola, qadah, krujka va boshqalar) kulollik charxining yordamisiz qo'lda tayyorlangan. Ilk temir davrida qal'a-shaharchalar qurilgan.*

*Qal'alar yarim doira shaklidagi minoralar, devor ichi yo'llari, tiyrandoz o'qchilar uchun mo'ljallangan ko'pgina tuynuklar bilan qurila boshlangan. To'g'ri burchakli yoki doira shakliga ega konstruksiyalar qal'a devorlarini mustahkamlagan. Shaharlarning barchasida qo'rg'on va alohida ma'muriy hukumat komplekslari, devor ortida esa xavfli harbiy harakatlar kunlarida shahar aholisini boshpana va himoya bilan ta'minlash mumkin bo'lgan inshootlar bunyod etilgan. Qishloqlarda alohida qo'rg'onlar bunyod etilgan.*

*Miloddan avvalgi IV asr - milodiy IV asrlarda O'zbekiston hududida mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'on, shahar-qal'ar bunyod etila boshlangan. Binokorlikda, asosan, yog'och va loydan (paxsa, guvala, xom gishtdan) foydalanilgan.*

*O'zbekiston hududi me'morchiligida V - VI asrlardan aylana yoki kvadrat asosga o'rnatilgan gumbazlar konstruksiyalari takomillashtirilgan, maqbara, masjidlar gumbazli qilib bunyod etila boshlangan. Tasviriy san'at rivojlangan.*

*VII - VIII asrlarda yurtimizga arablar kelgach, bu yerdagi ba'zi arxitekturayodgorliklari, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashlangan, shaharlarga shikast yetkazilgan. Natijada milliy san'atda sal kam bir asrgacha tushkunlik hukm surgan.*

## ***Adabiyotlar***

1. Григорьев Г. «Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе» УзССР в 1934г. – Ташкент, 1935
2. Григорьев Г. «Каунчитепе» (раскопки 1935г.) – Ташкент, 1940
3. Анарбаев А. «Раскопки на городищах Канка и Шахрухия» - М.,1975г.
4. Абдуллаева К. «Археологическое изучение городища Канка» - Ташкент 1975г.
5. Краткий отчет о работе Янгиюльской археологической экспедиции 1937г. – Ташкент, 1940
6. Зияева А. «Ташкент» часть I– Ташкент, 2009
7. Mukminova R. «To`rt asr oldingi Toshkent»– Toshkent, 1984
8. Muhammadkarimov A. «Toshkent bo`ylab toponimik sayohat»– Toshkent, 2000
9. Nozilov D. «Markaziy Osiyo me`morchiligida interyer»– Toshkent, 2005
10. Vaxitov M. Mirzayev Sh. «Me`morchilik»– Toshkent, 2010
11. Po`latov X. «O`zbekiston arxitektura yodgorliklari»– Toshkent, 2003
12. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi – Toshkent, 2000-2005.
13. Internet saytlari